

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDA
MADANIY XULQ - ATVOR KO'NIKMALARNI
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI

Ilmiy rahbar: dots. G'. Normurodov
Bajardi: BTU fakulteti 4-bosqich
talabasi Eshniyozova Zebo



Navoiy - 2012

MUNDARIJA

Kirish.

1-bob. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda madaniy xulq-atvorni shakllantirishning nazariy asoslari.

1.1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda axloqiy tarbiya asosida madaniy xulq-atvorni shakllantirishning pedagogik asoslari.

1.2. Axloqiy tarbiyaning turlari.

1.3. Maktabgacha tarbiya muassasalarida axloqiy tarbiyaning dolzarb muammolari.

2-bob. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda madaniy xulq-atvorni shakllantirishning amaliy asoslari.

2.1. Yosh davrlari madaniy xulq-atvorni shakllantirish.

2.2. Ta'lim-tarbiya jarayonida madaniy xulq-atvorni shakllantirish.

2.3. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda madaniy xulq-atvorni shakllantirishda tarbiyachining pedagogik mahorati.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish.

Kelajak avlod haqida qayg'urish sog'lom, barkamol naslning tarbiyalab yetishtirishga intilish zamondan-zamonga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarimizdir. Har bir ota-ona o'z farzandining baxt-saodati, fazlu-kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o'zini olmaydi. Shunday oilada katta bo'lgan bola milliy an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bolani shaxs sifatida, komil, barkamol shaxs sifatida shakllanishiga olib keladi.

Lekin o'zbek xalqi mustabidlik davrida ham o'z tarixini, qiyofasi oliyjanob an'alarini yo'qotmadi. Mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, odoblilik, hayo-ibolilik va h .k axloqiy sifatlarimizni saqlab qoldi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, mustaqillik tufayli erishgan boy merosimizni qayta tiklash, undan keng foydalanish, rivojlantirish uchun qulay muhit yaratildi va yaratilmoqda. Jamiyatni rivojlantirish, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli ana shu tarbiya bilan fuqarolarimizning tarbiyalanganlik darajasi, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassislar bilan bog'liq. Chunki uzliksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida bolalarning yosh xususiyatlari hamda jismoniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'naviy va axloqiy tadbirlarning ish rejalarini tuzish va uni amalga oshirish nihoyatda zarurdir. Shuning uchun ham "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Uchinchi ming yillik bolasi" davlat talablarida qayd etilgan dolzarb masalalar o'zining nazariy va ilmiy asoslariga ega. Bu dolzarb muammo Prezidentimizning "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch asarlari" mazmunidagi istiqbolga qaratilgan bolalarning taraqqiyotini belgilovchi barkamol shaxs muammolari atroficha uning mohiyati ochib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini ana shu yuqorida qayd etilgan manbalar hamda uzliksiz ta'lim tizimi haqidagi davlat hujjatlari

tashkil etadi. Bu vazifalarni bajarish uchun istiqbolimizning birinchi yilidan boshlaboq buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanala yuksaltirish, milliy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, bu jarayonni shakllantirish uchun uning zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadida “Uchinchi ming yillikning bolasi dasturi”, “Ta'lim to'g'risidagi qonun”, “Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi”ning qabul qilinishi olamshumul voqea sifatida qabul qilindi va u barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov aytganlaridek “Biz XXI asr bo'sag'asida turibmiz, biz yangi buyuk ishlar oldida turibmiz. Siz bilan bizning vazifamiz davr oldimizga qo'yayotgan barcha talablarga munosib javob qaytarishdir. Istiqbolimizni aniq tasavvur etib, xalqimizga tinch va farovon turmushni ta'minlashdir, jahon maydonida o'zimizga munosib o'rin egallashdir”. (4-47) Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati oshib borishi natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo'g'ini hisoblangan xalq ta'limida tizim oldiga ulkan vazifalar turibdi. Shulardan biri komil insonni – tarbiyalash, axloqli, bilimli, yuqori malakali, mutaxassisni shakllantirishimiz lozim.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini har tamonlama rivojlantirish borasidagi ta'lim tarbiyaga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabga o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- bolalarni xalq milliy, madaniy-tarixiy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik hislarini shakllantirish va h.k

Yuqoridagi qayd etilgan maqsaddan kelib chiqqan holda tarbiya ijtimoiy masala bo'lib har bir jamiyatning ravnaqi, kelajagini yaratuvchi shaxslarning qanday kamol topishiga davlatning shu sohadagi dasturlari, nizomlari va ularning hayotga qanday tatbiq etilishiga bog'liq. Tarbiya

nazariyasini qarab chiqar ekanmiz boshqa bo'limlarni kamsitmagan holda shuni aytishimiz mumkinki maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar shaxsini ma'naviy-axloqiy jihatdan to'g'ri shakllanirishda ular bilan olib boriladigan ma'naviy, axloqiy, jismoniy tarbiya eng asosiy rol o'ynaydi. Chunki axloqiy tarbiya bola hayotining birinchi yillaridanoq axloqiy ong, tuyg'u va ma'naviy xulq atvorni –odatlarini shakllantirish uchun faol bir jarayondir. Axloqiy tarbiya jamiyatning bo'lajak fuqarolariga zarur bo'lgan ma'naviy – axloqiy fazilatlarini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ruhiyatidagi o'ziga xos xususiyatlarni tadqiqotchi psixolog olimlarning fikricha kamol topishning senzitivlik davri hisoblanadi, uning shaxs sifatida shakllanishi yetarli darajada ko'zga tashlanadi. Insonlarning axloqiy rivojlanishida odamlarning birga yashashlari jarayonida shakllangan va rivojlangan, boyigan, holda avloddan-avlodga o'tadigan oddiy axloqiy normalari, milliy istiqlol g'oyalari, ta'lim va tarbiya tamoyillarini egallash katta ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy tarbiya-ikki tomonlama jarayon bo'lib, **birinchidan**: bolalarga kattalar (ota-ona, pedagoglar va h.k)ning faol ta'sirini va **ikkinchidan** esa tarbiyalanuvchilarning xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari va munosabatlarida namoyon bo'ladigan faollikni nazarda tutadi. Xulq –atvor normalari va qoidalar axloq mohiyatini tashkil etadi.Ular odamlarning ishlarida, xatti – harakatlarida namoyon bo'ladi, axloqiy o'zaro munosabatlarni boshqaradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash yuzasidan olib boriladigan ishlar yuqorida keltirilgan umumiy vazifalarda kelib chiqqan holda tashkil etish lozim. **Uchinchidan** maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarda shakllanadigan axloqiy sifatlar, his-tuyg'ular, xulq-atvor odatlari va tasavvurlari bolalar faoliyatiga, ular o'rtasidagi va kattalar bilan, o'zaro munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi. Bolalar bilan rejali ravishda uzluksiz ish olib borish, ularning axloqiy tasavvurlariga ham, aniq axloqiy xulq –atvori darajasini ham oshiradi; maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'p narsani o'z qo'llari bilan qilish va qilingan ishlarda o'zlari ishtirok etishiga, birga

o'ynash, shug'ullanish, umumiy maqsadlarni qo'yish va amalga oshirishga intilish vujudga keladi. **To'rtinchidan** bu qayd etilgan vazifalarning barchasi maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining ijtimoiy yo'nalishini belgilaydi, asta-sekin unda faol hayotiy pozitsiyani shakllantiradi va eng muhim, ancha keyin, maktab yoshida g'oyaviy-siyosiy, axloqiy tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun dunyoqarashni, mehnatga, mehnat kishilariga, vatanga, milliy g'oyaga munosabatini shakllantirish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot metodlarini ilmiy pedagogika, metodika va psixologiya fanlaridagi tajriba sinov, suroqnoma, savol-javob, bolalarning faoliyat natijalarini tahlil etish, kuzatish hamda hozirgi zamon axborot resurslari bilan bog'liq bo'lgan texnologik (infarmatsion, pedagogik, kompyuter) vositalari asosidagi qo'shimcha tadqiqot usullaridan tanladim va ular asosida bitiruv malakaviy ishiga oid materiallar to'pladim.

Bitiruv malakaviy ishining metodologiyasini tanlashda, bitiruv ishning metodologik asosini mustaqillikga erishgandan keyingi qabul qilingan davlat hujjatlari, O'zbekiston konstitutsiyas, uzliksiz ta'lim tizimiga oid qabul qilingan qonunlar, o'zbek mutafakkirlarining ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy qarashlaridagi ilg'or egulikni o'zida mujasamlashtirgan g'oyalar, manbaalar hamda milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettirgan madaniy, tarixiy obidalarda o'z aksini topgan. Milliy qarashlardan tegishli bitiruv ishning mazmunini ochib berishda foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishda muammoning qo'yilishi:

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar shaxsidagi individual psixologik xususiyatlarga mos tushadigan axloqiy, madaniy tushunchalarni ularning yoshiga, jismoniy xususiyatlariga, psixik jarayonlarga bog'langan xolda axloqiy tadbirlarni olib borishning ilmiy, nazariy, uslubiy va pedagogik – psixologik asoslarining yechimini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishining tajriba sinov ishlarini amalga oshirish bosqichlari:

Talaba bitiruv ish mazmunini ochib beruvchi mavzuga oid tajriba sinov ishlarini o'tkazish maqsadida quyidagi mudatlarda ishni bajarish rejalarini tuzgan.

1. Sentyabr, oktyabr, noyabr oylarida BMI mavzusi bo'yicha material to'plash, adabiyotlarni tayyorlash hamda nazorat va tajriba guruhlar uchun ish rejalarini tuzish.

2. Dekabr, yanvar, fevral oylarida tuzilgan reja asosida mavzuga oid materiallarni tuplash va ularni pedagogik-psixologik jihatdan o'rganib chiqish.

3. Mart, aprel oylarida BMIning tarkibiy tuzilishi bo'yicha to'plangan va ishlab chiqilgan materiallarni ilmiy, uslubiy va amaliy jihatdan xulosalar yaratish kuzda tutiladi.

4. BMI may oyidan boshlab izchil, sestimali ravishda BMIga qo'yiladigan nizom talablari asosida sistemalashtirish zaruriy, me'yoriy xujjatlar asosida tayyorlash.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti: maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatida amalga oshirilayotgan axloqiy madaniyat va tarbiya jarayoni ko'zda tutiladi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: maktabgacha ta'lim jarayonidagi tarbiyaviy tadbirlarning nazariy, ilmiy, uslubiy asoslarini pedagogik – psixologik yo'nalishda asoslab berish.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi: bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 6 ta band hamda umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

**1-BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA
MADANIY XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISHNING
NAZARIY ASOSLARI.**

**1.1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda axloqiy
tarbiya asosida madaniy xulq-atvorni shakllantirishning
pedagogik asoslari.**

Mustaqillik davrida ta'lim-tarbiyani rivojlantirish, yosh avlodga jahon andozalariga mos bilim, iqtidor va ko'nikmalar berish, ularni ona Vatanga, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbichlash borasidagi ishlarning bugungi qiyofasi tubdan o'zgardi. U mustaqillikka erishib taraqqiyot yo'lida dadil barayotgan mamlakatimiz ruhini, g'oyalari va intilishlarini o'zida aks ettirgan ta'lim–tarbiya tizimiga aylanmoqda. Eng asosiysi, mamlakatimizda ta'limning hali jahon amaliyotida kam uchraydigan betakror milliy modeli yaratildi. Bu modelda millatimizning boy merosi, an'analari, donishmanlarimiz boy merosidan foydalanildi va uni amalga oshirish uchun ketadigan mablag', kuch, imkoniyat davlatimiz tomonidan to'liq ta'minlanmoqda.

Bu ishlarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tizimi birinchi bosqich hisoblanadi va uzluksiz ta'lim tizimining bosh, harakatlantiruvchizimini hisoblanadi va unga bolalarni maktab bosqichiga ma'naviy , ruhiy , jismoniy, axloqiy tayyorlab berish va boshqa muhim zamonaviy ta'limiy masalalarni hal etish vazifasi yuklatiladi. Shu maqsadda “Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablari”, “Uchinchi ming yillikning bolasi” davlat—dasturi ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan talablarni bajarish maqsadida 250-300 ming bola

har yili bog'cha, tayyorlov guruhlar, markazlar, mahalla va boshqa xildagi markazlarda maktabgacha tayyorlanmoqda.

Axloqiy tarbiya va uning mohiyati insoniyat tarixidagi xar bir davrda ham o'ziga xos shakl va uslublar asosida mazmunga ega bo'lgan. Zotan axloqiy tarbiya tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak insoniyat paydo bo'lgan kunidan boshlab bola tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanish zarurligi xaqida bosh qotirgan.

Dastlab axloq tarbiyasi ham uning madaniy asoslari xar bir millatning xalq og'zaki ijodi manbalarida o'z aksini topgan.

Jumladan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xos bo'lgan og'zaki ijodning maxsus tarmog'i xisoblangan bolalar folklori (allalar, qiziqmachoq, avutmachoch, erkalama, chorlovlar, o'yinlar, qo'shiqlar) kabi 30 dan ortiq turlari mavjudki ular asrlar davomida bolalar uchun xos bo'lgan tarbiya vositasi sifatida ot-onalar, katta yoshdagi kishilar enagalar xalq orasidan yetishib chiqqan pedagoglar mutafakkirlar, ma'rifatparvar allomalar xalq pedagoglari tomonidan ijodiy yondashib o'zlarining tarbiya soxasidagi ishlarini olib borishda ijodiy foydalanilgan.

Natijada buyuk donishmandlar Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Farobiy, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Xoji Axror Vali, Abduxoliq G'ujduvoni, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi iste'dod egalari xam komil insonni o'sib ulg'ayib voyaga yetishida axloqiy tarbiya va madaniyatning tutgan o'rniga a'loxida ahamiyat bergan.

Masalan, Abu Ali ibn Sino bolalar folklorining debochasi bo'lgan alla qo'shiqlarini bolalar qalbi, vujudi, ruxi va shaxsining shakllanishida tutgan o'rniga aloxida to'xtalib alla bolani didini, ruxini va jismoniy jixatdan sog'lom o'sishini ta'minlovchi omil

sifatida beshikga katta ahamiyat bergan. Abu Ali ibn Sino beshik, ona allasi bir vaqtning o'zida uyg'unlashib beshikdagi bolaning jismoniy jixatdan o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiya vositasi ekanligini qayd etadi.

Xuddi shuningdek, ona beshik orqali aytadigan allasida o'zining jigar bandining kelajakdagi hayot yo'li xaqidagi orzu havaslarini, ezgu niyatlarini retmik ohanglar vositasida izohlaydi. Hamda bolani mustaqil hayotga tayyorlaydi. Bu yuqorida qayd etilgan allomalarning barchasi o'zining bolaligida beshik vositasida alla eshitib tinglab o'zining vujudini ruhiy dunyosini ona suti orqali oziqlantirganligi uchun ham ularda vijdon, iymon, halol va poklik kabi insoniy fazilatlar tulaqonli ular shaxsida mujassamlashgandir. Xususan, Amir Temur bobomizning nomi yer yuzining barcha qirralarida mustaqillik sharofati bilan katta hurmat va izzatga sazovor bo'lmoqda u haqda ingliz, nemis, fransuz, arab tillarida u qoldirgan madaniy meroslar hozirgi kunda ham yer yuzidagi erk sevar millatlar tomonidan e'zozlanib o'rganilmoqda. A.Temur qoldirgan madaniy meroslar, xususan axloqiy, madaniy, ma'rifiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan vasiyatnomasi hozirgi kundagi yoshlarimiz uchun, ota-onalar, pedagoglar, tarbiyachilar, keng kulamdagi ilmiy tadqiqotchilar tomonidan har tamonlama o'rganilishi uchun keng yo'l ochildi. Bu vasiyatnomada bobomiz axloqiy tarbiya va madaniyatning poydevorini tashkil etadigan g'oyalar, fikrlar, pand -asixatlar, hikmatli so'zlar, xalq xikmatlari shaklidagi odob- axloqqa oid qoidalarni qayd etadi. Demak bobolarimiz tomonidan yozib qoldirilgan manbalar bilan bir qatorda ular tomonidan yaratilgan tarixiy obidalar. ziyoratgox joylar ular nomi bilan ataladigan

masjidu-madrasalar yoshlarimizni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun ular ongida ezgulikni shakllantirishda boy manba bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim muassasalarida ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan buyuk siymolarning nomi bilan ataladigan tarixiy joylar, obidalar, xiyobonlar, istirohat bog'lari, muziyeular hamda ularga atab qo'yilgan haykallarni ziyorat qilish, ularning bolaligi xaqidagi ma'lumotlar bilan bolalarni tanishtirish o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bu xildagi tadbirlarda ular tomonidan yozilgan she'rlar, qo'shiqlar, rivoyatlar, rasmlar xuddi shuningdek xalq tomonidan ular xaqida yaratilgan rivoyatlar, hikmatli so'zlarni yodlatib, ongiga mustahkam singdirib borish ularning ma'naviy, axloqiy rivojlanishida muxim omil xisoblanadi.

1.2. Axloqiy tarbiyaning turlari

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi tamoyillaridan kelib chiqadagan asosiy vazifalardan biri: bolalarni Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviy va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

Tabiiyki bunday murakkab vazifani bajarishda davlat va jamiyatning ma'suliyati alohida kasb etadi. Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimini uzluksiz rivojlantirish va takomillashtirish kafilidir.

Davlatimiz rahbari aytganlaridek: "Ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ruyobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ikki quvvatning to'liq

yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur har-xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi va har qaysi inson olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste'dodini avvalo o'zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas. Oldimizda turgan buyuk maqsadlarga erishishda jamiyatimizning har bir a'zosi qo'shadigan hissa shu hisobdan beqiyos bo'lishi muqarrar. Men "portlash effekti" deganda aynan shunday holatni nazarda tutmoqdaman.

Mustaqillik davrida maktabgacha tarbiyani bolalar bog'chasi, oila, mahalla o'rtasida mustahkam aloqa sharoitlarida amalga oshirish lozim. Har qanday turdagi bolalar bog'chalari jamoasining tarbiyalanuvchilar ota-onalari bilan olib boradigan ishni bolalar barcha guruhleri pedagogik madaniyatini oshiradigan, bolalar tarbiyasida qiyinchiliklarga duch keladiganlarga alohida e'tibor beradigan qilib tashkil etish, mahalla bog'chalarda "Ota-onalar maktabi" ni ochish, ularni o'qitish ishlarini, pedagoglar uchun qayta tayyorlov kurslari tashkil etish va tarbiyaning ijtimoiy tomonlarini ochib berish lozim. Axloqiy tarbiya berishda asosiy omil hisoblangan shaxslar o'rtasidagi munosabatlar ijobiy, hurmat, axloqiy normalariga mos kelgandagina samarali natija berish mumkin. Shuning uchun tarbiyalanuvchilar faoliyatini uyda, bog'chada, rang-barang faoliyatida to'laqonli mazmunli, tarbiyaviy ahamiyatli qilib tashkil etish va unga kattalarning ijobiy namuna bo'lishi lozim.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida axloqiy tarbiya mujassam tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq, biroq har bir bola faoliyati o'ziga xos xususiyat bilan ajralib turadikiular u yoki bu vazifani eng muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun imkoniyat yaratishi lozim. Masalan, o'yinda –ijtimoiy o'zaro munosabatlar, axloqiy his-tuyg'ular; mehnatda–mehnatsevarlik, kattalar mehnatiga hurmat, shuningdek uyushqoqlik, ma'suliyat, burch hissi; mashg'ulotlarda g'oyaviy yo'nalganlik, ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi tasavvurlar, vatanparvarlik tuyg'ulari shakllantiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofiziologik xususiyatlari axloqiy tarbiya uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Ular zehnliligi, o'rgatishiga oson berilishlari bilan ajralib turadi. Bu ular asab tizimining egiluvchanligi tashqi ta'sirga faol javob berishi bilan bog'langan. Bolalar idrok etadagan juda ko'p narsa uning his-tuyg'usi, jiddiy e'tibor berish va taqlid qilish, anglash mavzusiga aylanadi. Biroq hayot tajribasining cheklanganligi, hissiyotga beriluvchanligi sababli idrok etadigan narsalarga yetarli darajada to'g'ri baho bermasligi tufayli ko'pgina yaxshi narsani yomondan ajratish, xatti-harakatning to'g'ri yo'lini belgilash qiyin bo'ladi. Shuning uchun ularning atrofini o'rab olgan kattalar ularga namuna bo'lishlari, ularda taqlidni o'rgatishlari va bolaning axloqiy yo'naltirilgan faoliyatini uyushtirishlari, uni muntazam ravishda axloqiy xatti-harakatlarni mashq qildirishlari va axloqiy sifatlarni, ko'nikma va malakalarni hosil qilishlari lozim .

Bolada kattalar bilan muloqot jarayonida axloqiy xulq-atvorning dastlabki tajribalari shakllanadi. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj-muhim ijtimoiy ehtiyoj bo'lib, kattalar esa bu ijtimoiy

ehtiyojni qondiruvchi bo'lib hisoblanadi, qachonki uning mazmuni pedagogik jihatdan qimmatli bo'lsa.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalari qo'yidagilarda iborat:

-xulq-atvor madaniyati, insonparvarlik asoslari, bolalar va kattalar o'rtasida insoniy munosabatlarni tarbiyalash (ijtimoiy turmushning eng sodda qoidalarini bajarish: xayrixoxlik, yaqinlarga g'amxurlik qilish va munosabatda bo'lish va h.k) bolalarning o'zaro munosabatini shakllantirish;

- milliy g'oyalarni shakllantirish;

-axloqiy sifatlarni shakllantiri va h.k.

Axloqiy his-tuyg'ular va odatlarni tarbiyalash shunday zaruriy asos hisoblanadiki, usiz bola shaxsining murakkabroq xususiyatlarini, uning axloqiy sifatlarini, davlatimizning ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi tasavvurlarni va ularga ijobiy munosabatlarni shakllantirib bo'lmaydi.

Oila

Oilaga yosh avlodni chuqur saviyali mukammal shaxs qilib shakllantirishdek yuksak va ma'suliyatli vazifa yuklatilgan. Darhaqiqat inson shaxsini tarkib toptirish oilaning ilk psixologik muhitidan boshlanadi, xususi bolada xarakter, iroda, urf-odatlar, fe'l-atvor, hulq, tevarak atrofga munosabat, e'tiqod, qarashlar, qobiliyat, qiziqishlar vujudga keladi. Ana shulardan kelib chiqqan holda turmushda va faoliyatda insonni kamol toptirish sharoitlarini o'rganmay turib shaxsning xususiyatlari va uni keltirib chiqaruvchi ob'ektiv hamda sub'ektiv omillar to'g'risida fikr yuritib bo'lmaydi. Oldin aytganimizdek oila bu - ijtimoiy-

tarixiy belgiga ega bo'lgan muayyan tuzilishdagi sotsial guruhdir. Bunday gurux a'zolarini qarindosh urug'chilik, nikoh, turmush sharoiti, odob-axloq umumiyligi, ma'naviy ehtiyojlari mosligi muayyan yo'nalishning ustivorligi kabi aloqalar o'zaro bog'lab turadi.

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, ideologik va psixologik munosabatlarning uzviy birlashuvi natijasida vujudga keladi. SHu sababdan turmushdagi va oila a'zolari munosabatlaridagi o'zgarishlar moddiy-maishiy, ijtimoiy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir.

Venger sotsiologi M.Komlosi fikricha bolalarning tarbiyasi va o'qishga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhiti (vaziyat, sharoit)ni qo'yidagi guruhlariga bo'ladi :

- 1.** Ota-onalarning jamoatchilik faoliyati;
- 2.** Oila a'zolari davrasidagi munosabatlar;
- 3.** Ota-onalarning tarbiyaviy-pedagogik faoliyati;
- 4.** Oilada bolalarning faoliyati.

Sobiq itifoq psixologi V.I.Semeyanov esa "baxtli bolalik bu-oiladagi quvonchu hamjihatlikning hamda ota-onalarning bolalariga g'amxurligining samarasidir" deb ko'rsatib oilani qo'yidagi toifalarga bo'ladi:

- 1.** Ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishidagi oila;
- 2.** O'zaro ziddiyatlik yo'nalishga ega bo'lgan oila;
- 3.** Past darajadagi ijtimoiy yo'nalishdagi oila;

Birinchi toifadagi oila a'zolari ishlab chiqarishda faol, jamoatchi, madaniyatli va bolalarida ham shuni tarbiyalaydilar.

Ikkinchi toifadagi oilada umumbashariy yo'nalish uzil-kesil hal qilinmagan bo'ladi. Bunday oila a'zolari o'z istak, xohish,

motivlarida kelib chiqib “o‘z aravasini o‘zi tortadi” va bolalarga ta’sir o‘tgazish uchun kurash ketadi.

Uchinchi toifaga mansub oilalarda ko‘pgina meshchanlik udumi va ideallari hukm suradi. Oiladagi munosabatlar ta’sirida ilk bolalikdan tortib yuksak g‘oyalarga, umumbashariyishlarga sodiqlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, shaxsiy qiziqishni boshqarish xislati, qa’iylik, qadr-qimmat, samimiylik kabi yuksak insoniy tuyg‘ular, kechinmalar shakllana boshlaydi.

Turmushdagi samimiy va oqilona, omilkorlik munosabatlar, iliq psixologik muhit ta’siri natijasida oila a’zolari kamtarlik, ko‘ngilchanlik, iltifotlilik, sabrlilik, to‘g‘rilik, iffatlilik, ibolilik, uyatchanlik, yumshoqlilik, dilkashlik, mehribonlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, ma’suliyatlilik, kamtarlik, ozodlik, izzat-nafslilik, tejab-tergashlik(tejamkorlik) kabi shaxs xislatlari tarkib topadi.

Agar oiladagi turmush munosabatlari qo‘pollik, andishasizlik, shaxsiyatparastlik negizida qo‘rilgan bo‘lsa, u holda oila a’zolari ruhiyat dunyosida kekkayishlik, pismiqlik, yalqovlik, ma’suliyatsizlik, mag‘rurlik, o‘zini katta olish, dimog‘dorlik singari illatlar vujudga keladi.

Yuqorida aytilgan omillar oila a’zolarining turlariga bog‘liq bo‘lib u:

- 1. Avtoritar**
- 2. Liberal**
- 3. Demokratik**
- 4. Diffuz**
- 5. Anormal**

turlariga bo'linadi. Bu munosabat turlari haqida to'liq to'xtalib o'tmoqchi emasmiz, lekin shuni ta'kidlashimiz mumkinki, biz o'rgangan oilalarda avtoritar va diffuz, demokratik holatlar ko'p uchraydi va bolalarning tarbiyalanganlik darajasi ham shunga bog'liq.

Ajdodlarimiz YUsuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Hibbatu haqoyiq", Kaykovusning "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Mahbubul qulub", "Nazmul javohir", Sa'diyning "Guliston", Husayin Voiz Koshifiyning "Axloqi muxsinii", "Anvari Suhaylii" va boshqa bir qancha oltin merosimiz asosida o'z ma'naviy-axloqiyhayotlarini qo'rishgan, shularga tayanib bola tarbiyalashgan. Har bir millatning o'ziga xos xarakteri, har bir millat oilasining o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi.

"...O'zbek o'zining go'zal milliy xususiyatlari bilan hech qanday shak-shubhasiz barcha tan olgan hurmatga loyiq. U bitmas-tuganmas aql bovar qilmas mehnatsevarligi, hunarda mohirligi va ajoyib tarzda saqlanib qolgan noyob an'analari bilan shunday hurmatga loyiq" degan edi asrimiz buyuk yozuvchisi Chingiz Aytmatov.

O'zbeklarga xos muomalalik va ochiq ko'ngillikni mashhur qozoq adibi Abay shunday ta'riflagan edi: "Qo'shni mamlakatlar bilan bevosita savdo-sotiq va boshqa iqtisodiy, madaniy aloqalarning qizg'in olib borilishi ulardan xushtabiatlilik, xushmuomalalik, hozirjavoblik, epchillik va ziyraklik xislatlarini talab etadi". Ha har bir xalq oilasining o'ziga xosligi shu xalqning xarakteriridan kelib chiqadi, hamda davriga qarab o'zgaradi, takomillasharadi, boshqa xalqlarning yaxshi tomonidan o'zlashtirib, o'z fazilatlarini boyitadi.

Ana shunday ma'naviyati axloqiy sifatlarga ega bo'lgan o'zbek oilalaridagi bolalar xalqimizning ana shunday ezgu g'oyalarini o'zlariga singdirib komil inson bo'lib tarbiya topadi. Har bir davrning o'ziga xos axloqi bo'ladi. Oila ana shu axloqdan chetga qololmaydi.

Buyuk mutaffakkir Abu Ali Ibn Sino oila jamiyat axloqiga mos axloq bilan yashashi xususida fikr bildirib, jamiyatdan ajratib tarbiyalangan bola baxtsiz bo'ladi, deydi.

“Axloq-jamiyatda qabul qilingan va jamoatchilik fikri bilan qo'llab-quvvatlanadigan inson xulqi normalarining yig'indisidir”.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgan kundan boshlab jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma'naviy-mafkuraviy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda va buyuk maqsadlarga erishish, jamiyat ravnaqi uchun, manfaatiga mos bo'lgan yangi milliy istiqlol mafkurasi shakllanmoqda.

Milliy mafkura g'oyalarini biz tarbiyachilar hayotga tatbiq etib, o'sib kelayotgan yosh avlod ongi va qalbiga singdirib borishimiz lozim. Biz milliy istiqlol g'oyalarini yoshlar ongiga singdirishni mashg'ulotlar, bayramlar va boshqa tadbirlar orqali amalga oshiramiz. Xalqimizning azaliy orzusi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. SHuning uchun ham bu milliy istiqlol g'oyasining bosh g'oyasi qilib qabul qilindi.

Milliy istiqlol g'oyasining bosh g'oyasidan kelib chiqqan holda asosiy g'oyalar: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, Xalq farovonligi, komil inson, Ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik bosh g'oyani xalqimizning ongiga va qalbiga chuqqurroq singdirishga xizmat qiladi.

Milliy istiqlol g'oyalarini bolalar ongiga singdirishda milliy qadriyatlarning o'rni beqiyos bo'lib: urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar, etnik xususiyatlar orqali uni shakllantirish mumkin.

O'sib kelayotgan bolajonlarimiz qalbi va ongiga milliylik, milliy g'urur orqali ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirib, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oya bu-komil insonni tarbiyalash g'oyasidir. Bu g'oya nafaq bir shaxsni balki xalqni, xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklaydi. A. Yassaviy, Naqshbandiy, A. Navoiy, Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Al Buxoriy, M. Ulug'bek va ilm fan ravnaqi buning misolidir.

Milliy istiqlol g'oyalarini bolalar ongiga singdirishda milliy qadriyatlar : Mustaqillik bayrami, Navruz bayrami, Xotira kuni, Vatan himoyachilari kuni, Allomalarimizning tug'ilgan kunilarini inshonlash, Istiqlolimizning buyuk sanalari, O'qituvchilar va murabbiylar kuni, Muchal to'ylari, Ro'za va Qurbon hayitlari, hosil bayrami kabi tadbirlarni o'tqazish alohida ahamiyatga molik.

Milliy istiqlol g'oyasi dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallab borayotgan mamlakatimiz xalining istiqlol yillarida orttirgan tajribalar, bosib o'tgan murakkab yo'llar, milliy tafakkuri va ma'naviyatdagi yuksalishlarning mantiqiy natijasi, xalq irodasining mujassam ifodasi sifatida shakllandi, milliy istiqlol g'oyaning o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, jamiyat hayotining ma'naviy mezoni bo'lib, tafakkur o'zgarishi odamlar ongida yangicha dunyoqarashning shakllanishi va ijtimoiy fikr rivoji uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yosh – shaxsning dastlabki kamol topish davridir. yetti yoshga borib bola axloqiy rivojlanishi darajasi

ko'rsatkich sifatida uning shaxsi yo'nalishi yetarli darajada aniq ko'zga tashlanadi.

Axloqiy tarbiya—ikki tomonlama jarayon. Bir tomondan, u bolalarga kattalar; ota-onalar, pedagoglarning faol ta'sirini, boshqa tomondan tarbiyalanuvchilarning xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari va munosabatlarida bo'ladigan faolligini nazarda tutadi. Shuning uchun pedagog muayyan mazmunni amalga oshirar, ma'naviy ta'sir ko'rsatishning turli metodlarini qo'llar ekan, bajarilgan ish natijalarini, o'z tarbiyalanuvchilarining yutuqlarini diqqat-e'tibor bilan tahlil qilishi kerak.

Bolalar bog'chasida bu jarayon jamiyat quruvchisining axloq kodeksida o'z ifodasini ma'naviy tamoyillar ruhida, maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Aniq tarzda axloqiy tarbiya jamiyatning bo'lajak fuqarolariga zarur bo'lgan ma'naviy fazilat asoslarini shakllantirishda o'z ifodasini topadi.

Axloq (odob) haqidagi, uning xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatlari haqidagi ta'limot, etika axloqiy tarbiya nazariyasining g'oyaviy asosi hisoblanadi. Xulq-atvor me'yorlari va qoidalari axloq (odob) mohiyatini tashkil etadi. Ular odamlarning ishlarida, ularning xatti-harakatida namoyon bo'ladi, ahloqiy o'zaro munosabatlarni boshqaradi. Vatanga muhabbat, jamiyat farovonligi uchun fidokorona mehnat qilish, o'zaro yordam axloqiylikning demokratik jamiyat uchun xos bo'lgan boshqa me'yorlari ong, his-tuyg'u, xulq-atvor va o'zaro munosabatlarning ajralmas qismlari bo'lib, ularning ildizi jamiyatning qonuniyatlaridir. Har bir jamiyat o'z axloqiga ega. Antagonistik sinflarga bo'lingan jamiyat - axloqiga ega. Tarbiya

shunday tashkil etilishi kerakki, axloqiy talablar bolalar xulqi, ularning munosabatlari uchun yo'l-yo'riq bo'lib qolsin. Insonning axloqiy rivojlanishida odamlarning birga yashash jarayonida shakllangan va rivojlangan, boyigan holda avloddan-avlodga o'tadigan oddiy axloq me'yorlarini egalashi katta ahamiyatga ega. Mustaqil davlatning yanada gullab yashnashiga ko'maklashish uchun har bir kishi fidokorona mehnat qilishi va xalq mulkini ehtiyot qilishi va axloq me'yorlarining buzilishiga qarshi kurashishi lozim.

Maktabgacha yoshgacha bolalarni axloqiy tarbiyalash yuzasidan olib boriladigan ishlar shu umumiy vazifalarga muvofiq ravishda takomillashtirilishi lozim. Maktabgacha yoshda shakllanadigan axloqiy his-tuyg'ular, xulq-atvor odatlari va tasavvurlar butun bolalar faoliyatiga va ular o'rtasidagi, bolalar bilan kattalar o'rtasida o'zaro munosabatlar mujassamiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida axloqiy tarbiyaning dolzarb muammolari.

Ta'lim-tarbiyaviy ishlar mazmuni va shakllari bola imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniqlashtiradi. Pedagoglarning "Uchinchi ming yillikning bolasi" davlat dasturiga tayanib, maktabgacha bolalar yoshdagi bolalarda axloqiy va mehnat faolligini rivojlantirish, insoniy fazilatlar va jamoatchilik asoslarini, fuqarolik his-tuyg'ularini rivojlantirish to'g'risida iloji boricha g'amxo'rlik qilishlari muhimdir. SHu maqsadda bolalarning qo'llaridan keladigan ishlarni bajarishi, o'yin va mashg'ulotlardagi ta'lim, mazmunli muloqotdan foydalaniladi.

Bolalar bilan rejali ravishda izchil ish olib borish ularning axloqiy tasavvurlarini ham, aniq axloqiy xulq-atvorlari darajasini ham oshiradi; maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'p narsani o'z qo'llari bilan qilish va qilingan ishlardan quvonish, kattalar mehnati natijalarini qadrlash ko'nikmalari rivojlanadi; umumiy foyda uchun qilinadigan ishlarda o'zlari ishtirok etishga, birga o'ynashga, shug'ullanish, umumiy maqsadlarni qo'yish va amalga oshirishga intilish vujudga keladi. Bularning barchasi bola shaxsining ijtimoiy rivojlanishini belgilaydi, asta-sekin unda faol hayotiy o'z o'rnini shakllantiradi va eng muhimi, ancha keyin, maktab yoshida g'oyaviy-siyosiy, axloqiy tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish, dunyoqarashni, mehnatga demokratik munosabatni shakllantirish imkonini beradi.

Har bir bola shaxsi, uning bugungi va istiqboldagi axloqiy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik pedagoglarning kundalik e'tiborini talab etadi. Bunda bola shaxsi va bolalar jamoasiini shakllantirish vazifalari uzviy ravishda qo'shib olib boriladi. "Uchinchi ming yillikning bolasi" davlat dasturi, jumladan, axloqiy tarbiya vazifalarini amalga oshirishda pedagog yetakchi rol o'ynaydi. Uning xulq-atvori, bolalar va kattalar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari xarakteri bola uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Uning ta'siri qanchalik faol bo'lsa, u bolalarning his-tuyg'ularini qanchalik har tamonlama qamrab olsa, bolalarning irodaviy kuch-g'ayratlarini safarbar etsa pedagog ta'sirida bola shaxsi shunchalik muvaffaqiyatli shakllanadi.

Maktab yoshidagi bolaning axloqiy tarbiyasi bolalar bog'chasi va oila o'rtasida o'rnatilgan mustahkam aloqa sharoitlarida amalga oshirilishi kerak. Bolalar bog'chasi jamoasining

tarbiyalanuvchilar ota-onalar bilan olib boradigan ishini bolalar barcha guruhlari pedagog madaniyatini oshiradigan, bolalar tarbiyasida qiyinchiliklarga duch keladiganlarga alohida e'tibor beradigan qilib tashkil etish; barcha ota-onalarni (imkoni bo'lsa oilaning katta yoshli boshqa a'zolarini) pedagogik «umumiy ta'limga» jalb etishga intilish kerak.

Kattalar, kattalar va bolalar o'rtasida axloqiy qimmatga ega bo'lgan o'zaro munosabatlar mavjud bo'lib, pedagoglar va ota-onalarning bolalar ko'z o'ngida kattalar obro'sini saqlash to'g'risida birgalikda g'amxo'rlik qilganlaridagina bolalar axloqiy tarbiyasida yuqori natijalarga erishish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolaning uyda va bolalar bog'chasida rang-barang faoliyatga to'la bo'lgan mazmunli hayotini tashkil etish nihoyatda muhimdir. Tajriba, shuningdek, ota-onalar "Uchinchi ming yillikning bolasi" davlat dasturini bilib, tarbiyachilarning maslahatlariga e'tibor bilan quloq solishsa, o'z navbatida tarbiyachilar oilaviy tarbiyaning eng yaxshi tajribalarini, oiladagi turmush sharoitlarini o'rganishsa, axloqiy tarbiya samaradorligi oshishini ko'rsatmoqda.

Mazkur risola maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishda tarbiyachilarga yordam maqsadida yozilgan. Pedagogik jarayonini tashkil etish xususiyatlarini va bolalar axloqiy tarbiyasiga rahbarlik metodlarini yoritishdan oldin ularning yosh xususiyatlariga xarakteristika beriladiki, uni hisobga olish maktabgacha yosh davrining har bir bosqichidagi asosiy vazifalarni ajratib olish imkonini beradi.

Olimlar bunday tavsifnomani uchta yosh-kichik, o'rta va katta yosh bosqichlari bo'yicha birgalikda tasavvur etish mumkin

degan fikrdan kelib chiqadilar. Bu shu bilan bog'liqki, uch va to'rt yosh bosqichidagi bolalarni tarbiyalashda asosan xuddi shu vazifalar hal etiladi, ularni amalga oshirish metodlarida ham jiddiy farq yo'q. Garchi maktabgacha yoshning har bir kelgusi bosqichida bola axloqiy sifatlarini takomillashtirish jarayoni ro'y bersada, besh-etti yoshli bolalar tarbiyasiga nisbatan ham xuddi shunday deyish mumkin.

Olimlar to'rt yoshdan besh yoshgacha bo'lgan bolalar axloqiy rivojlanishi vazifalarining o'ziga xos xususiyatini ta'kidlashni zarur deb hisobladilar. yetarli darajadagi mustaqillik, o'zini-o'zi anglashning taraqqiy etganligi, xulq-atvorini o'zi tartibga solishi, mehnat faoliyatida muntazam ishtirok etish yuzasidan vujudga keladigan qobiliyat – o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarni ikki-uch yoshli bolalardan ajratib turadigan psixologik xususiyatlar shulardan iborat.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida axloqiy tarbiya har bir bolalar faoliyati o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi, yoki bu vazifani eng muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Masalan: o'yinda – ijobiy o'zaro munosabatlar, axloqiy his-tuyg'ular; mehnatda– mehnatsevarlik, kattalar mehnatiga hurmat, shuningdek uyushqoqlik, mas'uliyat, burch hissi; mashg'ulotlarda g'oyaviy yo'nalganlik asoslari, ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi tasavvurlar, vatanparvarlik tuyg'ulari shakllantiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning axloqiy rivojlanishida so'z va og'zaki metodlarga yetarlicha baho bermasligidan dalolat bermaydi: bu metodlar guruhini qo'llash bolalarga axloqiy me'yorni yaxshiroq anglab yetish va o'zlashtirishga ko'maklashadi.

Pedagog bir vaqtning o'zida bolaning boshlang'ich axloqiy me'yorlarni anglab yetishini hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolaning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishini, xulqning ijobiy shakllarini tashkil etishni ko'zda tutsa, axloqiy tarbiya metodlari eng samarali bo'ladi, maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z va ish birligini shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiyaning rang-barang metodlarini qo'llaganda, o'yin va mehnat, o'yin va mashg'ulotlar, mehnat va mashg'ulotlarning o'zaro aloqasini ta'minlash lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofizologik xususiyatlari axloqiy tarbiya uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar juda ham zehtlilik, o'rgatishga oson berilishlari bilan ajralib turadilar. Bu esa ular asab tizimining egiluvchanligi, uning atrof-muhitdan keladigan ta'sirlarga faol javob berishi bilan bog'langan. Bola idrok etadigan juda ko'p narsa uning his-tuyg'usi, jiddiy e'tibor berish va taqlid qilish, anglash mavzusiga aylanadi. Biroq hayot tajribasining cheklanganligi, hissiyotga beriluvchanligi, maktabgacha yoshdagi, ayniqsa kichik yoshdagi bolalar idrok etadigan narsalarga yetarli darajada to'g'ri baho bermasligi tufayli ko'pincha yaxshi narsani yomondan ajratishi hatti-harakatining to'g'ri yo'lini belgilashi qiyin bo'ladi. SHuning uchun, birinchidan, bolaga yaqin bo'lgan kishilar unga namuna bo'lishlari va ularga taqlid qilishni istashi, ikkinchidan ular bolaning axloqiy yo'naltirilgan faoliyatini uyushtirishlari, uni muntazam ravishda axloqiy xatti-harakatlarda mashq qildirishlari muhimdir.

Bolada kattalar bilan muloqot jarayonida ahloqiy hulq-atvorning dastlabki tajribalari shakllanadi. Muloqotga bo'lgan

ehtiyoj – muhim ijtimoiy ehtiyoj bo'lib, katta yoshli kishi bu ijtimoiy ehtiyojni qondiruvchi manba hisoblanadi. Bolalar bog'chasida bola tarbiyasining o'ziga xosligi dastavval shundaki, uning kundalik hayoti va faoliyati – o'yin, mehnat, turli mashg'ulotlar – bolalar doirasi sharoitida o'tadi va pedagog tomonidan uyushtiriladi. Bunda ijobiy munosabatlar va o'zaro munosabatlar (bolalar o'rtasida, bolalar va kattalar o'rtasida) tajribasini to'plash hamda chuqurlashtirish imkoniyatlari vujudga keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: xulq-atvor madaniyati, insonparvarlik asoslari, bolalar va kattalar o'rtasida insoniy munosabatlarni tarbiyalash (ijtimoiy turmushning eng sodda qoidalarini bajarish; hayrihohlik, yaqin kishilarga g'amxo'rlik bilan munosabatda bulish va hokazo) bolalarning o'zaro munosabatlarini shakllantirish Vatanga muhabbat, turli millat mehnatkashlariga hurmat va ehtiromli qilib tarbiyalash. Bolalarda mehnat qilish istagi va ko'nikmasida namoyon bo'ladigan mehnatsevarlikni tarbiyalash muhim vazifadir.

Pedagog bu barcha vazifalarni o'zaro bog'liq holda amalga oshira borib, bolaning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi, axloqiy xulq-atvor odatlarini tarbiyalaydi, ayrim axloqiy fazilatlar va bolalarga tushunarli bo'lgan ijtimoiy turmush hodisalari haqida to'g'ri tasavvurlarni shakllantiradi, asta-sekin baholash va bir-biriga baho berish qobiliyatini rivojlantiradi.

Axloqiy his-tuyg'ular va odatlarni tarbiyalash shunday zaruriy asos hisoblanadiki, u siz bola shaxsining murakkabroq xususiyatlarini, uning axloqiy sifatlarini mamlakatning ijtimoiy

hayot hodisalari haqidagi tasavvurlarni va ularga ijobiy munosabatni shakllantirib bo'lmaydi.

Pedagog eng oddiy odatlarni (masalan, madaniy xulq-atvorni) tarbiyalar ekan, kichkintoy har bir narsani ishtiyoq bilan va umuman ongli ravishda bajarishiga, ya'ni tashqi ijobiy narsalar ichki mohiyatni, uning qoidalariga munosabatni aks ettirishiga erishadi. Bu xayrixohlikni tarbiyalash, tengdoshlari va atrofni o'rab turgan kattalarga nisbatan loqayd, beparvo munosabatning vujudga kelishi imkoniyatining oldini olish uchun muhimdir. SHu tariqa hatto xulq-atvorning nisbatan oddiy ijobiy odatlari bolaning axloqiy rivojlanishi uchun qimmatli bo'ladi.

“Uchinchi ming yillikning bolasi” davlat dasturida barcha vazifalarni turli yosh guruhlarida asta-sekin hal etish ko'zda tutilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ahloqiy tarbiyalash sohasidagi tadqiqotlar ma'lumotlarini tarbiyachilarning ilg'or amaliy tajribasini hisobga olib, maktabgacha bolalik bosqichida shaxsning axloqiy rivojlanishini belgilaydigan aniq axloqiy sifatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Pedagoglar va ota-onalar insonparvarlik asoslarini tarbiyalar ekanlar, bolalarda kattalarga hurmat, quloq solish istagi va ko'nikmalari, ularning maslahatlari va topshiriqlarini bajarishga tayyorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor berishlari; tengdoshlari bilan do'stona o'zaro munosabatlar, ularga va kichiklarga, kattalarga g'amxo'r munosabatda bo'lish tuyg'usini shakllantirishlari kerak. Bolalarning o'z vazifalarini esda tutish va ularni ishtiyoq bilan bajarishga; boshqalar bilan o'z bilimlari, rejalari, o'yinchoqlari va qo'llanmalarini bo'lishishga o'rgatish darkor.

Kichik yoshdan boshlab bolada birga qayg'urish, boshqa kishilarning g'am va quvonchlariga sherik bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. Adabiy qahramonlar hulq-atvorini, o'zining xulq-atvorini va tengdoshlarining xulq-atvorini to'g'ri baholashga o'rgatish lozim. Turli millat bolalari va kattalarni yoqtirish ularga hayrixohlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash; insonparvarlik his-tuyg'ulari va munosabatlarning namoyon bo'lishiga, ularning ijtimoiy yo'nalganligiga erishish zarur. SHu munosabat bilan bolalarda mehnatsevarlikni: faqat o'zi uchun emas, balki umum foydasi uchun ham mehnat qilish istagi va malakalarini maqsad qo'ya olish va ijobiy natijalarga erishish, hohishidan qat'iy nazar zarur bo'lgan narsani bajarish malakalari tarbiyalashga alohida e'tibor berish kerak. Faollikni, to'siqlarni yengib o'tishga tayyorlikni tarbiyalash, qo'yilgan vazifalarni bajarishda tashabbus ko'rsatish, ishni oxirigacha yetkazishga bo'lgan intilishni rag'batlantirish darkor. Guruh oldida mas'uliyat hissini tarbiyalash zarur.

Maktabgacha bolalikning dastlabki bosqichlarida tarkib toptirilgan insonparvarlik asoslari, uning yo'nalganligi bolalarda shaxs belgilari; xulq-atvor odatlari, munosabatlari va tasavvurlarini shakllantirish uchun asos bulib xizmat qiladi.

Jamoatchilikni tarbiyalash – mustaqil davlatimiz bolalar bog'chasida maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasidir. U atrofdagi odamlarga faqat o'zing uchun emas, boshqalar uchun ham muhim bo'lgan faoliyatga nisbatan xudbinlik, beparvo munosabatning namoyon bo'lishiga ziddir. Bolalarda uyushqoqlik, mas'uliyat asoslari, burch, adolat hissi kurtaklari tarbiyalangan bo'lsa, kichik

yoshdanoq ularning do'stona munosabatlarini rivojlantirishga asoslanadi, bu bolalarning xayrixohlik munosabatlari uchun nihoyatda muhimdir. Birgalikdagi rang-barang mazmunli faoliyat har bir maktabgacha yoshdagi bolada ahloqiy tarbiya uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Bolalarning axloqiy tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qanday pedagogik shartlar zarur?

Avvalo bolalar muassasasida jamoaning katta yoshli a'zolari o'rtasida to'g'ri o'zaro munosabat uslubini vujudga keltirish kerak. O'zaro hurmat va g'amxo'rlik, ishga muhabbat, mamlakatning siyosiy va mehnat hayotida ishtirok etish – bularning barchasi zarur uslubni ta'minlashi lozim. Pedagogik jamoa va ota – onalar jamoalarining to'g'ri munosabatlari uslubi ham muhim ahamiyatga ega. Bu uslub esa bolalar barchasining ota-onalari bilan muntazam ish olib borishi, oila tarbiyachisi tajribalarini o'rganish natijasida tarkib topadi.

Kattalar bilan bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yuksak darajasi muvaffaqiyatli axloqiy tarbiyaning majburiy shartidir. Ular o'sib kelayotgan shaxsga hurmat, uni yaxshi ko'rish, uning psixik va jismoniy rivojlanish qonuniyatlarini bilishga asoslangandir. Bunday munosabatlar va o'zaro munosabatlar bolalar muassasasining mutahkam an'anasi bo'lib qolishi kerak.

Bolalar bog'chasi hayotining aniq kun tartibi, guruhlar va maydonchasining zarur materiallari, asbob-uskunalar bilan jihozlanganligi, ularning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq joylashtirilishi va qo'llaninshi muhim ahamiyatga ega.

Guruhda shunday sharoit yaratish kerakki, bolada atrofidagi kishilarga nisbatan ijobiy emotsional munosabat vujudga kelsin. Kattalarda emotsional his-tuyg'u nochor bo'lsa, bolalarda ular atrofda ro'y berayotgan narsalarga befarqlik kuzatiladi, bunda ularning ijtimoiy his-tuyg'ulari bo'sh ifodalangan bo'ladi, ularning yo'qligi esa bolarning emotsional, aqliy va jismoniy rivojlanishini kechiktiradi.

Pedagog bolalarga birdek qaramasa, muntazam jahli chiqsa, tez-tez, buning ustiga bolalarni nohaq jazolasa, ularga baqirsa, qarama-qarshi talablar qo'ysa nima ro'y beradi? Ayrim bolalarda pedagoglarga nisbatan ishonchsizlik, ulardan uzoqlashish, yakka qolish istagi paydo bo'ladi; ayrimlarda bunday sharoitlarda moslashish ko'nikmalarini erta namoyon etadilar: bola qattiqqo'lroq bir tarbiyachining talablarini bajaradi va yumshoqroq, lekin poyma-poy ish tutadigan boshqasining talablariga bo'ysunmaydi. Tabiiyki, bunday xatti-harakat oqibatida munofiqlik, topshiriqlarga beparvo qarashni tug'diradi. Kichik bola bilan muloqatda erkalatishni ayash kerak emas, biroq bolalarga yoqimli, g'amxo'r munosabatda bo'lish ularga nisbatan oqilona talabchanlik bilan qo'shib olib borilishi kerakki, bunda bolada ishni yaxshiroq qilish, axloq qoidalariga shart qilib qo'yilgandek, yaxshi yo'l tutish istagi oshadi.

SHu tariqa axloqiy tarbiyani amalga oshirish maqsadida bolalar kattalar tomonidan doimiy g'amxo'rlik qilinishi va qo'llab-quvvatlanishiga ishonadigan barcha sharoit yaratilishi kerak. Faqat shundagina bolada emotsional xotirjam tuyg'usi vujudga kelishi mumkin va u tengdoshlari bilan bajonidil va bermalol muloqotda bo'lishi, ular bilan uchrashuvni quvonch bilan kutishi,

bolalar bilan inoq o'ynashi, kattalarga o'z quvonch va tashvishlarini aytishi mumkin.

2-BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA MADANIY XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY ASOSLARI.

2.1. Yosh davrlari madaniy xulq-atvorni shakllantirish.

Bola shaxsini shakllantirishda uni muayyan xatti-harakat, faoliyatga undaydigan motivlar muhim ahamiyatga ega. Motivlar axloqiy, ijtimoiy: kattalarga yordam berish, kichikning yonini olish, guruh kutubxonasida tartib o'rnatish istagi yoki xudbin: eng yaxshi o'yinchoqni tortib olish (o'zi uchun), mukofotni kutishda ko'maklashish, nohaq lekin kuchli bo'lgan tengdoshi tomonida turish bo'lishi mumkin. Agar kichik maktabgacha yoshda motivlarning birinchi va ikkinchi yo'llari har doim sezilarli bo'lmasa (bolaning axloqiy tarbiyalanganligi to'g'risida bir narsa deyish mumkin bo'lmasa), besh-olti yoshli bolalarda motivlar tarbiyalanganlik darajasini, shaxsning axloqiy yo'nalganligini yetarli darajada aniqlik bilan xarakterlaydi.

Tarbiyachi bolaning xatti-harakati, xulq-atvorini to'g'ri baholashi uchun, uning o'y-niyatlari, his-tuyg'u, istaklarini albatta bilishi kerak. Chunki xulq-atvor shakli ba'zan xohish, motivga zid bo'lishi mumkin. Aytaylik, bola o'rtog'ini urdi. Yo'l qo'yib bo'lmaydigan shakl, lekin uni bunga undagi motiv olijanob

bo'lgan: u tengdoshini ayyorlik bilan aldagani uchun uni jazolagan. Tarbiyachi tarbiyalanuvchini u yoki bu xatti-harakatga majbur qilgan sabablarni aniqlar ekan, axloqiy tarbiyaning eng ishonchli usullarini topa oladi, ijobiy motivlarni amalga oshirishda bolaga yordam bera oladi.

Xulq-atvor motivlari asosan bola kundalik hayot va faoliyatda, kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda egallaydigan tarbiya jarayonida shakllanadi. Motivlar qanchalik mustahkam va axloqiylik jihatdan qimmatli bo'lsa, maktabgacha yoshdagi bolaning his-tuyg'ulari, xulq-atvor odatlari va tasavvurlari, ularning onglilik darajasi shunchalik mustahkam va qimmatli bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning mazmuni va metodlari bu yoshdagi bolalarning xususiyatlariga mos kelishi va u eng yaqin vaqtdagi axloqiy rivojlanish pog'onasini ko'zda tutishi kerak. Masalan, agar to'rt yoshga qadam qo'ygan bolalar o'z tengdoshlariga asosan tarbiyachining maslahati, besh yoshga to'layotganda bunday yordamni o'z hohishlariga ko'ra ko'rsatishlari lozim. Tabiiyki, xulq-atvorning yanada yuksak pog'onasiga tayyorgarlikni oldindan boshlash kerak.

Axloqiy tarbiya metodlari – pedagog ta'sir ko'rsatish usullari bo'lib, ular yordamida bolaning shaxsi demokratik jamiyat maqsadlari va ideallariga muvofiq ravishda shakllantiriladi.

Tarbiyachi insonparvarlik asoslarini shakllantirishi, demak metodlar insoniy bo'lishi lozim; jamoalarni tarbiyalash, demak bolalar hayoti va faoliyatini uyushtirib, ishni birgalikda bajarish istagi va ko'nikmalarini rivojlantirish, birgalikda inoq o'ynash, har

bir bola haqida va har bir kishining barcha haqida g'amxo'rlik qilish; vatanparvarlik va fuqarolik his-tuyg'ularining asosi – Vatanga muhabbatni tarbiyalash – tarbiyaviy ishni ijtimoiy hayot bilan bog'lashdir.

Bolalarni tarbiyalash, ayniqsa axloqiy tarbiyalash, A.S.Makarenko ta'kidlaganidek, u yoki bu “yakka” metod yoki vosita bilan amalga oshirilmaydi. Pedagogik jarayonda turli metodlarning butun bir mujassamidan foydalaniladi.

Axloqiy tarbiya metodlarini shartli ravishda guruhlash mumkin.

Metodlarning birinchi guruhi bolalarda ijtimoiy axloq amaliy tajribasining vujudga keltirishini ta'minlaydi. Ularga bolani ijtimoiy axloqning ijobiy shakllariga o'rgatish, axloqiy odatlarni tarbiyalash metodini kiritish mumkin. Uning asosiy mazmuni shundan iboratki, bolalar muntazam ravishda eng rang-barang vaziyatlarda jamiyatda qabul qilingan me'yorlar va qoidalarga muvofiq ish tutishga, masalan, salomlashish va xayrlashish, xizmat uchun minnatdorchilik bildirish, savollarga xushmuomalalik bilan javob qaytarish, buyumlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish va hokazolarga da'vat etiladi. Bolalar yordam va o'zaro yordam ko'rsatishga, ancha kichiklar, kattalar haqida g'amxo'llik qilishga o'rgatiladi, ularda haqqoniylik, kamtarlik tarbiyalanadi. O'rgatish mashq yordamida amalga oshiriladi. Bunda biror ish, xatti-harakatga bo'lganda'vat bolaning his-tuyg'usi, ongiga ta'sir ko'rsatish bilan qo'shib olib boriladi. Muntazam o'rgatib borish ijobiy fe'l-atvorini shakllantirish uchun nihoyatda muhimdir.

Mashq bolalarni rang-barang amaliy faoliyatga, tabiiy hayotiy va maxsus vujudga keltiriladigan, maktabgacha yoshdagi bolalarni bunday harakatlarga rag'batlantiradigan vaziyatlarda tengdoshlar va kattalar bilan muloqotga kiritishni ko'zda tutadi. Masalan, pedagog katta tarbiyalanuvchilar huzuriga kichik yoshdagi bolalarni taklif etadi va kattalariga mehmonlarni qanday qilib yaxshiroq kutib olishni tavsiya qiladi. Bunday hollarda olti yoshli bolalar xushmuomalalik, kichiklarga e'tibor, g'amxo'rlik ko'rsatib o'zlarining bilim va ko'nikmalarini amalga oshirishlari kerak. Boshqa holatda pedagog bolalardan biri uzoq vaqt kasallikdan so'ng, bolalar bog'chasiga kelganligini hisobga olib, yangi o'yinchoqni birinchi navbatda kimga berish kerakligini katta bolalarning o'zlari hal etishlarini taklif qiladi.

O'rgatish metodi kattalar yoki boshqa bolalar namunasidan foydalanish bilan qo'shib olib borilsa, u eng yaxshi samara beradi. Lekin bola katta yoshli odam yoki tengdoshi namunasida harakat qila boshlashi uchun, unda his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatgan, faoliyatini yo'llagan kishiga o'xshash istagi bo'lishi kerak. O'xshashga bo'lgan istak taqlid qilish orqali amalga oshiriladi. Namuna bola faoliyatida o'z ifodasini topgandagina, uning shaxsga faol ta'siri haqida gapirish mumkin.

Pedagog tomonidan uyushtirilgan, aniq maqsadni ko'zda tutadigan kuzatishning ahamiyatini ta'kidlash lozim. Masalan, kichik bolalar katta maktabgacha yoshdagi bolalarning quvnoq, inoq o'yinlarini kuzatishadi va bu ularga ta'sir etmay qolmaydi: tarbiyachining undashi bilan ular yoqimli o'zaro munosabatlarni, optimistik kayfiyatni, harakat uyg'unligini namoyon etishadi. Bunday pedagogik yo'naltirilgan kuzatuvlarni ta'sir ko'rsatishning

passiv metodi sifatida qarash kerak emas. Bu bolalar tajribasini ta'minlab turadigan, kuzatilayotganga nisbatan asta-sekin munosabatni shakllantiradigan va bolalarning yurish-turishiga ta'sir ko'rsatadigan manbaidir.

Harakatni ko'rsatishdan ham foydalanish mumkin. Bu xususiy, shu bilan birga samarali metod mazkur risolaning kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalar madaniy axloq ko'nikmalarini tarbiyalashga bag'ishlangan bo'limlarida yetarli darajada to'liq aks ettirilgan. Uning yordamida, masalan, mustaqillik yorqin ifodalangan axloqiy, ijtimoiy jihatga ega bo'ladi.

Metodlarning birinchi guruhiga shuningdek faoliyatni tashkil etish metodini ham kiradiki, bu faoliyat maktabgacha yoshda, ayniqsa, katta maktabgacha yoshda ijtimoiy foydali xususiyat kasb etadi. Birinchi navbatda bu bolalarning birgalikdagi, jamoa mehnatidir (masalan, guruh xonasini, maydonchasini yig'ishtirish, butalar, gullar o'tqazish, ekish va qushlarni boqish uchun o'simliklarning urug'ini yig'ish, 8 Martda kattalarga sovg'a qilish uchun o'yinchoqlar va boshqa buyumlar tayyorlash va hokazo).

Pedagog ishining maqsadini belgilaydi va umuman uni tashkil etishni, shuningdek kichikroq birlashmalarda uning qatnashchilarini tanlash hamda joy-joyiga qo'yishni puxta o'ylaydi. Tarbiyachi katta va tayyorlov guruhlarida rang-barang mehnat faoliyatini tashkil etar ekan, o'zini-o'zi uyushtirish ko'nikmalarini shakllantiradi: nimani va nima uchun qilish kerakligini, ishni qanday rejalashtirish va taqsimlashni o'ylashni bolalarning o'zlariga tavsiya etadi va hokazo. Pedagog o'z tarbiyalanuvchilariga umumiy natijalarni ham, har bir bolaning

sarflagan kuch-g'ayratini ham to'g'ri baholashda yordam beradi. O'zini-o'zi uyushtirish bilan birga xayrixoxlik, o'zaro yordamga, bir-birini qo'llashga tayyorgarlik, mehnatsevarlik shu yoshdagi bolalar axloqiy rivojlanganligining ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Kichik maktabgacha yoshda mehnat tarbiyasining asosiy vazifasi mustaqillikni shakllantirishda iboratdir. Chunki mustaqillik kichkintoyda mehnat topshiriqlarini bajarish istagi paydo bo'lishining zarur shartidir.

Shunday qilib, mehnat ham tarbiya vositasi, ham tarbiya metodidir.

Bolalar o'yini, ayniqsa rollarga bo'lib o'ynaladigan o'yin haqida ham shunday deyish mumkin. To'g'ri, u bevosita ijtimoiy ahamiyatga molik emas: uning axloqiy tarbiya vositasi va ta'sirchan metodi sifatidagi qimmat shundaki, bu faoliyat bolaga boshqa boshqa bolalar bilan erkin va mustaqil ravishda aloqa va munosabatlarni o'rnatish, maqsadni tanlash, materiallarni saralash va o'ylangan g'oyani amalga oshirish vositalarini topish imkonini beradi. Axloqiy rivojlanishdagi yutuq va kamchiliklar, bolalarning axloq me'yorlari va qoidalarini qay darajada egallagani ayniqsa o'yinda namoyon bo'ladi. Syujetli o'yin ikki tomonlama bolalar munosabatlarini ko'zda tutadi: ulardan biri – bu o'rtoqlarning o'yin yuzasidan munosabatlari yoki boshqacha aytganda, aniq munosabatlar; ikkinchisi–o'ynovchilarning muayyan syujet, rol bilan yo'lga solinadigan o'zaro munosabatlaridir.

O'yinni maktabgacha yoshdagi bola faoliyatining asosiy turi deb qaraganda uning mujassamlashtirgan tuzilish qismlarini ajratib ko'rsatish muhimdir. Negaki asosiy tarbiyaviy vazifalar shu

qismlarda mujassamlashgan bo'ladi. Bular avval qoidalar bo'lib, ular o'ynovchilarning xulq-atvori va xatti-harakatini izga soladi. Bolalar qoidalariga rioya etgan holda harakat qilar ekanlar, o'zlarini tuta bilishga, uyushqoqlikka o'rganadilar, ularda intizomlilik asoslari shakllanadi.

Harakatli va didaktik o'yinlarda qoidalar o'yinning barqaror elementlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Qiziqarli o'yin sheriklar bilan bo'ladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ular bilan hisoblashishni talab qiladi.

O'yinning mazmuni o'yin tuzilishini tashkil etadi. U his-tuyg'ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, ijobiy xulq-atvorning rivojlanishiga zamin yaratadi. Ijobiy syujetli-rolli o'yinlar, qatnashuvchilarning xulq-atvori aniq ajralib turadigan adabiy asarlarning mazmuniga oid dramalashtirilgan o'yinlar bola xatti-harakati va munosabatlarining axloqiy yo'nalishini shakllantirishga yordam beradi.

Tarbiyachi o'yinga rahbarlik qilar ekan, turmushning ijobiy tomonlarini aks ettiruvchi, pedagogik jihatdan qimmatli o'yinlarni rag'batlantiradi va rivojlantiradi; u taqlid uchun namuna sifatida rolga tayanadi. Tajriba bu kabi mazmunli o'yinlar bola tabiyasi uchun qanchalik muhimligini ko'rsatadi: zero o'yin muhim amaliy faoliyat sifatida bolaning his-tuyg'ulari va munosabatlarini, tevarak-atrofdagi narsalar haqidagi tasavvurlarini faollashtiradi. Kichkintoy onasini ifodalar ekan, o'z qizini g'amxo'rlik bilan ovqatlantiradi, uxlashga yotqizadi, u bilan sayr qiladi. Biroq eng qimmatli syujet ham axloqiy tarbiya vazifalarini hal etishga kafolat bera olmaydi. Bolalarning ijtimoiy axloq tajribarini egallash uchun faqat mazmunli o'yinlarni rivojlantirmasdan,

bolalarda axloqiy his-tuyg'u va xatti-harakat odatlarini tarbiyalash bo'yicha umumiy ishni faollashtirish kerak. Shundagina bolaning zimmasiga olgan rolga muvofiq xatti-harakati o'rtasida birgalikda erishish mumkin.

Sanab o'tilgan metodlarni pedagog mehnat, o'yin, turmushdagi har qanday faoliyatda qo'llaniladi. Barcha hollarda erishilishi mumkin bo'lgan maqsad ajratib olinadi.

Tarbiyachi qo'llaydigan metodlar faqat bevosita emas, balki bilvosita, uning rahbarlik ta'siri biror narsa vositasida ko'rsatiladigan, ba'zan esa bolalardan yashirin bo'lishi ham mumkin. Masalan, tarbiyachi o'zini qoidaga muvofiq qanday tutish kerakligi haqida faqat ko'rsatma bermaydi, balki shunday vaziyat tug'diradiki, u bolani to'g'ri yo'l tutishni o'ylab ko'rishga, xatti-harakat usullarini mustaqil ravishda topishga majbur qiladi. Aytaylik, bolalarga o'yinni tugatib, sayrga o'tlanish aytiladi, lekin kiyinishdan oldin nima qilish kerakligi to'g'risida o'ylab ko'rish taklif etiladi.

Syujetli o'yinda ham tarbiyachining o'z o'rne ko'pincha yashirin bo'lishi mumkin. Masalan, pedagog bolalar o'rtasida ko'proq o'zaro xayrixohlik munosatlari bo'lishini istab, ularga rol orqali ta'sir ko'rsatadi(kapitanga murojaat qilib, undan dengizchilarga vazifalarni to'g'ri taqsimlashda yordam berishni so'raydi, kichkintoy onaga sho'xlik qilayotgan bolalariga ertak aytib berishni maslahat qiladi va hakoza).

Bolalar qanchalik katta bo'lib borishsa, pedagogning o'yinda ularning o'zaro munosabatlariga tengdoshlari yoki kattaroq bolalar orqali ta'sir etishi uchun imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. SHuni hisobga olish kerakki, bolalar doimo bir-birlariga

ta'sir ko'rsatadilar. Salbiy ta'sirning oldini olish uchun pedagog o'ynayotgan guruhga yangi bolani kiritadi, umumiy qiziqishlar, mayllar asosida yangiguruhchalar vujudga keltiriladi, bolalarda o'rtog'iga yordam berish, unga biror narsani o'rgatish istagini va hokazolarni tarbiyalaydi. Uncha katta bo'lmagan bolalar jamoalari tuzilishiga, ular faoliyati mazmuniga ta'sir etishning bunday metodi axloqiy tarbiyada g'oyat muhimdir, bunda katta odamning ta'siri ham bevosita, ham bilvosita bo'lishi mumkin.

Metodlarning ikkinchi guruhi maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tasavvurlar, mulohazalar, baholarni shakllantirishga qaratilgandir. Bunda tarbiyachining odob-axloq haqidagi suhbatlari, badiiy adabiyotlarin o'qish va hikoya qilib berish, kartinalar, rasmlar, diafilmlar, teleko'rsatuvlarni tomosha qilish, radio eshittirishlarni tinglash muhokama etish kiradi.

Bu vositalar, metodlar va usullarni, birinchidan, butun guruh bilan mashg'ulot o'tkazishda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu yerda "Uchinchi ming yillikning bolasi" davlat dasturi asosida barcha bolalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan eng murakkab bilimlar tizimlashtirilgan holda beriladi. Insonning qimmatli axloqiy fazilatlari, ijtimoiy hayot hodisalari haqida mashg'ulotlarda shakllangan tasavvurlar bolaning atrofidagi turmushda ma'naviy munosabatini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Deyarli har bir mashg'ulot (ona tili, tasviriy faoliyat, sanoq va boshqalar)da axloqiy tarbiya vazifalarini amalga oshirish mumkinligini ko'zda tutish kerak.

Ikkinchidan, bolalarda axloqiy tasavvurlar, mulohazalar va baholarni shakllantirishga qaratilgan metodlardan, mashg'ulotlardan tashqari paytda faol foydalanish kerak. Bu

tarbiyachining kuzatuv asosida ijtimoiy tasavvurlar sohasidagi dasturida belgilangan bilimlarni egallamagan, umumlashtirishni qiyinlik bilan o'zlashtirayotgan bolalari yoki bilishga qiziqishi yuqori bo'lgan bolalar guruhi bilan suhbat bo'lishi mumkin.

Pedagogning bolalarda axloqiy xatti-harakat amaliy tajribasini tarkib toptirishda foydalaniladigan birinchi guruh metodlari «nima yaxshi-yu, nima yomon» degan axloqiy tasavvurni shakllantirish imkoniyatini tayyorlaydi. O'z navbatida og'zaki (va og'zaki-ko'rsatmali) metodlar, ya'ni axloqiy tasavvurlar va mulohazalar darajasi oshirish maqsadida qo'llaniladigan ikkinchi guruh metodlar bolaning xulq-atvorni, uning xatti-harakatlarini, kattalar va bolalarga bo'lgan munosabatini boyitadi va yo'naltiradi.

Tarbiyachi ikkinchi guruh metodlarini qo'llaganda, bolalarni faqat badiiy asarlarning qaharmonlari, pedagogning suhbat chog'ida so'z yuritilgan qandaydir voqealarning qatnashchilari ega bo'lgan axloqiy fazilatlar va munosabatlar bilangina tanishtirib qolmasdan, balki ularni shaxsiy amaliy tajribalarini muhokama qilish va tahlil etishga jalb qilish lozim. Masalan, «Sizningcha, yaxshi do'st bo'lish degani nima?», «Biz qanday o'ynadik», «Nima yaxshi-yu, nima yomon?» degan mavzularida suhbat o'tkaziladi. Tarbiyachi o'rta va katta yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar chog'ida bolalarning umumlashgan fikrlari amaliy vaziyatni tasvirlash, tahlil etish bilan qo'shib olib borilishiga intiladi. Kichik yoshdagi bolalar aniq vaziyatlar va o'z xatti-harakatini suhbatlar chohida emas, balki, masalan qo'g'irchoq, stol teatrlari spektakllarini tomosha qilish, maxsus o'yin-mashg'ulotlar o'tkazishda osonroq eslaydi.

Ham ikkinchi, ham birinchi guruh metodlari barcha ma'lum bo'lgan metodlar, masalan ishontirish metodini o'z ichiga oladi. Chunki, undan tarbiyachining mehribon, aqlli so'zi orqali ham, badiiy asarlar yordamida ham, mohirona tashkil etilgan faoliyat orqali ham muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

2.2. Ta'lim-tarbiya jarayonida madaniy xulq-atvorni shakllantirish.

Pedagogik jarayonda ijobiy namunaga tayanish keng qo'llaniladi. Tarbiyachi bolalarning kundalik hayotidagi axloqiy tarbiyasiga rahbarlik qilar ekan, shu metoddan foydalanishda: xushmuomala, g'amxo'r tengdosh yoki katta yoshli odamning namunasi, o'yinda rolli yoki mehnat topshirig'ini yaxshi bajarish namunasi, Vatanimizning eng yaxshi kishilari, adabiy qahramonlarning ijobiy namunasi.

Tarbiyachi ijobiy namuna bolaga taqlid uchun o'rnak bo'lib qolishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi kerak. Aniq hayotda har doim ham bunday bo'lavermaydi: ijobiy namunani ko'radi, lekin salbiy namunaga taqlid qiladi. Ijobiy namuna taqlid qilishga o'rnak bo'lishi uchun bu odamning asosiy, eng qimmatli belgilarini ko'rish, uning ishlarini axloqiy jihatlarini ko'rishga (yoki anglab yetish)ga yordam berish muhimdir. Bolaga shunday o'ynash yoki mehnat qilishga ko'maklashish kerakki, uning hali bolalarcha faoliyatida uni jalb etayotgan namuna belgilari muayyan darajada bo'lsa ham o'z aksini topadi.

Tarbiyachilar o'z guruhsi tarbiyalanuvchilarini kuzatar ekanlar, ularning axloqiy rivojlanish darajasi bir xil emasligiga ishonch hosil qiladilar. Har qanday yosh guruhida kattalarni o'zlarining xayrixohliklari, intizomliliklari, mehnatga qiziqishlari va

mehnatsevarliklari, jamoatchilik xususiyatlarini namoyon etishlari bilan quvontiradigan bolalar bor. Ularda muayyan darajada xulq-atvor, tasavvurlar va his-tuyg'ular barqarorligi namoyon bo'ladi; bolalar o'z hohishi bilan yaxshi xatti-harakat qilishga intiladi va hokozo.

Har doim "o'rtacha" bolalar ham bo'ladi. Ularning xulq-atvori va munosabatlari barqaror emas, vaziyatga bog'liq, axloqiy tasavvurlari cheklangan, yuzakidir.

Bolalarning bir qismi pedagoglar va ota-onalarni turli xil salbiy xatti-harakatlarni, masalan: tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda qo'polliklari, kattalarga behurmatliklari, xudbinliklari bilan tashvishga soladilar.

Bir xil yoshdagi bolalar rivojlanishi bir tekis emasligining sabablari xilma-xildir. Ular oilaviy tarbiyaning ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o'ziga xos xususiyatlari, bolalarning individual farqlari bilan bog'liqdir. Tarbiyachilarning o'quv yilinig boshidanoq guruhdagi ahvolni tahlil etishlari, kamchiliklarning sabablarini aniqlashlari, bolalarni axloqiy tarbiyalashlarni takomillashtirish yo'llarini belgilab olishlari muhimdir.

Ishning bir qismi dastur asosida guruhdagi barcha bolalar bilan amalga oshiriladi. SHu bilan bir vaqtda axloqiy tarbiyalanganlik darajasiga ko'ra shartli ravishda bo'lingan kichik guruhlar bilan alohida-alohida, individial ish olib borish zarur.

Masalan, tarbiyachilar birinchi guruh bolalariga nisbatan qiyinchiliklarni yengib o'tish ko'nikmalarini chuqurlashtirish, yomon ishlarga yo'l qo'yayotgan o'rtoqlariga faol ta'sir ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirishni rejalashtiradi. Biroq ana shu guruhdagi ayrim bolalarga to'g'ri xatti-harakat qilish haqidagi

bilimlar yetishmaydi. Bu esa uning tengdoshlari va kattalari bilan individual suhbat o'tkazish kerak bo'ladi.

Uchinchi guruh bolalari(eng past daraja) uchun bolalar bog'chasi va uyda osoyishta, xayrihohlik vaziyati yaratish ko'zda tutiladi. Shu maqsadda bolalar bilan suhbatlar o'tkaziladi, ularni kattalar qiziqish uyg'ota olgan amaliy ishlarga jalb etiladi. Bu guruhchadagi ayrim bolalarda "axloqiy rasmiyatchilik" kuzatilishi mumkin. Ular axloqiy mavzularda ajoyib mavzular yuritganlari holda, o'zlarini xudbinlarcha tutadilar. Bunday bolalarni ezgu xatti-harakatlar, yaxshi ishlarda mashq qildirish, boshqa odamlar uchun ahamiyatli bo'lgan faoliyatga jalb etish muhimdir.

Guruhda odatda osoyishta va ta'sirlanadigan; his-tuyg'uga tez beriladigan va gap ko'tara olmaydigan bolalar bo'ladi. Axloqiy tarbiya vazifalarini hal etganda, ularning barchasini hisobga olish muhimdir. Masalan; tarbiyachi bolalar mehnatini uyushtirar ekan, tortinchoq bolani xayrihoh, umid, ishonchga to'la bolalar guruhiga kiritadi.

Yil oxirida har bir yosh guruhi pedagogi bolalar bilan olib borgan ishlari shu jumladan axloqiy tarbiya ishlarini yakunlaydi. Shu maqsadda bolaning kattalarga munosabatini tengdoshlari shuningdek, ancha katta va kichik yoshdagi bolalar bilan bo'ladigan munosabatlarini, bolaning faoliyatga, shuningdek shaxsiy va jamoat mulkiga munosabatini kishilarning axloqiy fazilatlari, ijtimoiy turmush hodisalari to'g'risidagi bilim va tasavvurlarining mavjudligini, bolaning bu hodisalarga munosabatini tahlil qilish lozim.

Bu masalalardan har birining mazmunini pedagog "Uchinchi ming yillikning bolasi" davlat dasturidan oladi. Uyerda har bir

yosh guruhi bo'yicha va xilma-xil faoliyat turlarida axloqiy tarbiya berish vazifalari berilgan. Tarbiyachi axloqiy mayllar, axloqiy xulq-atvor odatlarining barqarorligi darajasini belgilab olishi lozim, chunki bu erishilgan natijalarning bosh mezoni, bolalar axloqiy tarbiyalanganligining ko'rsatkichi hisoblanadi. Pedagog bolalarning faqat odatdagi sharoitda emas, balki o'zgartirilgan va umuman yangi sharoitlarda o'zlarini qanday tutishlarini; ular kattalar, ayniqsa eng obro'li kishilar huzurida va ularsiz, ularni hech kim ko'rmayapti, deb hisoblaganda o'zlarini qanday tutishlarini; bola xulq-atvor me'yorlari va qoidalarini o'z hohishi bilan bajarishga intilayotganligi yoki buni kattalarning ko'rsatmasi, qat'iy talabi bilan qilayotganini belgilab olishi kerak.

Pedagoglarning o'z tarbiyalanuvchilari, har bir bola to'g'risidagi mulohazalarning haqqoniyligiga ularning ota-onalar va oilaning boshqa katta yoshli a'zolaridan olgan ma'lumotlar ham yordam beradi.

Ikki yoshdan to'rt yoshgacha bo'lgan kichik maktabgacha yosh bolalarning ahloqiy rivojlanishida muhim davrdir. Bu yosh bosqichida kichkintoylarda yahshi va yomon to'g'risidagi dastlabki eng oddiy tasavvurlar, axloq ko'nikmalari, ularning atrofidagi kattalar va tengdoshlariga nisbatan yahshi his-tuyg'ular faol shakllanadi. Bu bolalar bog'chasi va oilaning maqbul pedagogik ta'siri sharoitida ayniqsa muvaffaqiyatli ro'y beradi. Bolalarda mana shu yoshda tarkib topadigan axloqiy his-to'yg'ular, tasavvur va ko'nikmalar ular to'plagan ma'naviy tajriba kelgusida ahloqiy rivojlanishiga asos bo'ladi. Kichkintoylarning maktabgacha tarbiya guruhsiga o'tish paytidan ularning hayoti birmuncha o'zgaradi. Bola hayotining uchinchi yili uning

rivojlanishida o'tish davri hisoblanadi. U xali avvalgi bosqichdagi bolalar bilan ko'p tomonlari o'xshash bo'lgan va kattalarning alohida ehtiyotkorligi hamda e'tiborli munosabatini talab qiladigan kichkina bola. Biroq shu bilan birga unda ko'nikmalarni egallash, tasavvurlarni shakllantirish, shaxsiy xulq-atvor va faoliyat tajribasini egallashda sifat jihatidan yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi. Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya jarayoni qayd etilganidek, ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun harakatni kattalarning yordamisiz bajarishga, atrofdagi narsalar haqida so'z orqali fikr yuritishning eng oddiy turlarini namoyon etishga yangi shakldagi munosabatlarni paydo bo'lishi, yakka o'yinlar, birovlarining yonida o'ynashdan sekin birgalikdagi o'yin faoliyatining sodda shakllariga o'tish xarakterlidir.

Uchinchi va to'rtinchi yoshdagi bolalarda kattalarning erkalatishi, e'tiborga ehtiyoj, tarbiyachi bilan sirli yaqinlikka intilish kuchli bo'ladi. Bolalar hali ko'p narsada kattalarga qaram bo'ladilar. Bu kichkintoylarda gigiyena va o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatishning elementar ko'nikmalari, mustaqil o'ynash atrofdagilar bilan muloqotda bo'lish malakalari yo'qligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyalashning asosiy vazifalaridan biri ularda turmush faoliyatida, o'yinda, mashg'ulotlarda mustaqillikni shakllantirishdan iborat. Bolalarning kuchi yetadigan, hayotiy tajribasiga mos keladigan narsalarni ularning o'zlari bajarishlariga o'rgatish lozim.

2.3. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda madaniy xulq-atvorni shakllantirishda tarbiyachining pedagogik mahorati.

Bolalarning axloqiy tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qanday pedagogik shartlar zarur?

Bolalar hali ko'p narsada kattalarga qaram bo'ladilar. Bu kichkintoylarda gigiyena va o'ziga-o'zi xizmat kursatish, mustaqil o'ynash, shug'ullanish, atrofdagilar bilan muloqatda bo'lish bilan izohlanadi. Shuning uchun ham kichik maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning asosiy vazifalaridan biri ularda turmush faoliyatida, uyinda mashg'ulotlarda mustaqillikni shakllantirishdan iboratdir. Bolalarning kuchi yetadigan, hayotiy tajribasiga mos keladigan narsalarni ularning o'zlari bajarishlariga o'rgatish lozim. Bola mustaqillikni egallar ekan, o'ziga-o'z xizmat ko'rsatib (yuvinib, yechinib kiyimlarini tartibli taxlab, kiyinib, ovqat yeb)gina qolmay, balki atrofdagi sharoitda tartib saqlash (o'yinchoqlarni, risolalarni joyiga yig'ishtirish), yordamga tayanmay turib, bir qancha qoidalarni bajarish, ya'ni o'z xatti-harakatini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uch yoshlarda mustaqillikning o'sishida sifat jihatidan siljish ko'zatiladi. Bu tarbiyachining bolalarga yuqori talablar qo'yishiga: o'yin paytida, topshiriqlarni bajarishda o'rtoqlari bilan aloqa bog'lash, tengdoshlari bilan birgalikda umumiy faoliyat uchun sharoit yaratish, boshqalarning qiziqishlari, istaklari bilan hisoblashish, yordam ko'rsatishga imkon beradi.

Pedagog kichkintoylarni yakka tartibdagi va birgalikdagi faoliyatga jalb etar ekan, ularni yaxshi ishlarga mashq qildiradi,

insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi, atrofdagilarga (tarbiyachi, enagaga) quloq solish, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish istagini o'yg'otadi. Katta yoshli odam, jumladan uch yoshga qadam qo'ygan kichkintoylarda salomlashish, minnatdorchilik bildirish, kattalardan xush muomilalik bilan iltimos qilish, boshqa bolalar yonida ularga xalaqit bermay o'ynash, bolalar ko'rgan narsalarni ehtiyot qilib saqlash, o'rtog'i yuvinib, o'yinchoqni o'ynab bo'lgunicha tinchgina kutish ko'nikmalarini tarbiyalaydi, batartib yuvinishni, hafsala bilan oyoq artishni, o'yinchoqlarni joyiga yig'ishtirib qo'yishni o'rgatadi.

Tarbiyachi ikkinchi kichik guruhda kattalar va bolalardan xushmuomalalik bilan muomala qilish, atrofdagilarga qo'lidan keladigan xizmatlar ko'rsatish, tengdoshlari bilan birgalikda o'ynash, o'yinchoqlar, risolalarni yonbosish malakalarini mustahkamlaydi. Didaktik, harakatli o'yinlarda eng oddiy qoidalarga amal qilishga; boshlovchini vazminlik bilan yeshitishga, o'z navbatini chidam bilan kutishga (bu kutish uncha uzoq bo'lmasa) o'rgatadi. Bolalar nonushtaga, tushki ovqatga stolni hozirlashga, o'simliklar va hayvonlarni parvarish qilishga oid topshiriqlarni bajarishga jalb etiladi.

Tarbiyachi bu vazifalarni amalga oshirish uchun ikki-to'rt yoshli bolalarni o'ziga xos xususiyati bo'lgan taqlidchanlikdan foydalanadi. Katta yoshli kishi shaxsiy namunasi bilan ishga atrofdagi kishilarga, bolalarga ijobiy munosabatni namoyish etadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarga katta emotsional xayrihohlik xususiyati xos bo'lib, bu yahshi xis-tuyg'u va atrofdagi kishilarga yaxshi munosabatlarni tarbiyalash vazifalarini

muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi. Bunda tarbiyachining kichkintoylarga emotsional xolatni uning taklifi, iltimosiga xayrihohlikni, boshqa odamning xafagarchiligini ko'rganda u bilan birga qayg'urish hisini qo'llab – quvvatlashi g'oyat muhimdir. Bolalarda yaqinlariga muhabbat, ular uchun biror yahshi narsa qilish istagi tarbiyalanadi. Bunga bolaning atrofdagilarga ezgu his-tuyg'ularini namoyish etishini kattalar tamonidan ma'qullanishi, maqtashi orqali erishiladi.

Pedagog bolalarning to'rtinchi yoshida ularda o'rtoqlariga nisbatan maylni, yahshi mehribon bo'lishiga intilishini tarbiyalashni davom ettiradi, bolaga o'zining yomon odatlaridan uyalish kerakligini uqtiradi. Quvnoqlik, o'z kuchiga ishonishni tarbiyalashga alohida e'tibor berish kerak. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda tengdoshlari bilan birgalikdagi o'yinlarga, ular bilan muloqatda bo'lishga ehtiyoj ancha yorqin ifodalangan bo'ladi. Ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan bu vazifa tengdoshlari bilan muloqotda, yahshi natijalarga erishganda quvonch hissini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. SHu bilan birga tarbiyachi bolalarni o'zaro munosabat qoidalari bo'zilishini (itarib yubordi, o'yinchoqni olib qo'ydi) payqashga ham o'rgatadi.

Uch yoshda boshqa bolalar bilan muloqotda bo'lishga intilish ayniqsa kuchli bo'ladi. Bolalarning rivojlanganlik darajasi tengdoshlarining harakati va nutqini tushunish, ular bilan gaplashish, birgalikdagi o'yin mashg'ulot haqida kelishib olish imkonini beradi. Bolalar orasida kichkintoy o'z istagini boshqa bola va butun bolalar guruhi istagi bilan muvofiqlashtirishga o'rganadi. Uch yoshli bolalar yaxshi, rahmdil o'rtoq bo'lishlari

mumkin. Bularning barchasi tarbiyachi zimmasiga ikkinchi kichik guruh bolalarida kichikroq bolalarga nisbatan xayrihoxlik bilan munosabatda bo'lish, katta yoshli kishining iltimosiga ko'ra yangi, kasallikdan keyin kelgan bolalar haqida g'amxo'rlik qilish, o'zi bilgan narsani boshqalarga o'rgatish ko'nikmalarini shakllantirish vazifasini yuklaydi. Bolalar kattalarga taqlid qilib, o'yinda tengdoshlari bilan kundalik muloqotda o'zaro e'tibor, g'amxo'rlikni namoyon etadi.

“Uchinchi ming yillikning bolasi” davlat dasturida ta'kidlanganidek, kichik maktabgacha yoshdagi bolalarni xulq-atvori sabr-toqatning yetishmasligi, axloq qoidalarini o'z vaqtida va to'g'ri bajara olmaslik bilan xarakterlanadi. Jumladan, uch yoshga qadam qo'ygan bolalarda tarbiyachining muayyan talablariga bo'ysunish istagini juda osonlik bilan ro'yobga chiqarish mumkin, biroq bu ko'pincha istagan narsani bajarish imkoniyatlariga zid keladi. Bolalarda zarur xulq-atvor ko'nikmalari mehnat malakalari, qiyinchiliklarni yengish, irodaviy kuch g'ayrat namoyon yetishga jismoniy kuch va qobiliyatlar yetishmaydi. SHu bilan birga kichkintoylar kattalarning, ayniqsa ishonchli, hech qanday shak-shubha uyg'otmaydigan tarzda aytgan gaplariga juda e'tiborlidir. SHuning uchun bolalarda ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davridanoq o'z xatti-xarakatini eng oddiy odob-axloq me'yorlariga bo'ysundirish ko'nikmalarini tarbiyalashga kirishish mumkin. Kundalik hayotdagi, o'yindagi xulq-atvor qoidalarini egallash bolalarga beixtiyor xarakatlarning oldini olishga ko'maklashadi, ularni o'zlashtirilgan qoidalarga muvofiq ish tutishga da'vat etadi, maqsadga intiluvchanlik asoslarining rivojlanishini ta'minlaydi.

Ikkinchi kichik guruhda madaniy xulq-atvor ko'nikmalari va odatlari jadal shakllanadi. Bunda motivlar muhim rol o'ynaydi. Bola faoliyati, uning xatti-harakati, munosabatlarining sabablari (motivlari) madaniy xulq-atvorning tashqi shakllari bilan uning ma'naviy ahamiyatli mayllari o'rtasida birlik o'rnatilishiga yordam beradi.

To'rt yoshli bolalar va kattalar (ota-onalar, pedagoglar)ning oddiy topshiriqlarini bajarishga qodir bo'lganliklarini, o'z xatti – harakatlari davomida: "Bunday qilish mumkin, bunday qilish mumkin emas"degan qoidalarga amal qila olganliklari uchun, ular tengdoshlari va kattalarga biror foydali narsa qilishdek ijtimoiy ahamiyatli oddiy motivlarni anglay boshlaydilar. Bu pedagogdan bolalarning har qanday faoliyatini va xatti-harakatini shunday yo'lga qo'yishni talab qiladiki, bunda xatti-g'arakatga, jarayonga bo'lgan qiziqish sabablari, atrofdagilarning ma'qullashiga erishish istagi bilan bir qatorda boshqalarga (tengdoshlariga, kattalarga) kerakli bo'lishdek ma'naviy mayl ham shakllanadi.

Uch yoshga qadam qo'ygan bolalar hayoti uchun fikrlashning xarakterlidir. Ular talabni sharoit va muayyan shaxs bilan bog'laydilar. Ko'pincha bolalar bir xil talabni ba'zi sharoitlarda bajarishadi. Boshqasining oldida buzishadi, kattalar oldida bajarishadi va ularning yo'qligida bajarishmaydi.

Hatto to'rt yoshga qadam qo'ygan bolalar ham ahloqiy me'yor haqidagi tasavvurlari bilan o'z xatti –harakatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatni aniqlay olmaydilar. Bundan tashqari, bolalarda o'zini-o'zi nazorat qilish, o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish ko'nikmasi yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Shu munosabat bilan ular ko'pincha mazkur holatda

alangalanadigan hissiyotlar, istaklar ta'sirida ish tutib, tarbiyachining talablarini unutadilar. Shuning uchun ham to'rt yoshgacha bo'lgan bolalarning axloqiy odatlari, xatti –harakatlari ko'pincha vaziyatga xos xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni bir xil sharoitlarda ruyobga chiqmaydi.

Biroq bolalar bog'chasi va oilaning o'zaro hamkorligi o'rnatilganda, pedagogik qimmatga ega bo'lgan kundalik muloqot, shuningdek, to'rtinchi yoshdagi bolalarga mos ravishda kattalar ham tengdoshlari bilan hamkorlikdagi faolyati tashkil etilganda, mustahkam odatlarni shakllantirish vazifasi ancha muvaffaqiyatli hal etiladi; axloq madaniyati, atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlar vaziyatga bog'liq holda namoyon bo'lishidan vaziyatga bog'liq bo'lmagan tomonga o'zgara boshlaydi.

Uch yoshdan to'rt yoshgacha bo'lgan bolalar nutqni faol egallay boshlaydilar. Ular atrofidagi hodisalarni tushunib, ularni so'z orqali oddiy baholaydilar. Nutqning jadal rivojlanishi, bolalarning faolligi va jo'shqinligidan pedagog kichkintoylarni atrofdagi dunyo, kishilar, o'zaro munosabat qoidalari bilan tanishtirish uchun foydalanadi.

Birinchi kichik guruh tarbiyalanuvchilari inoq o'ynash, shug'ullanish, bir-birlarini xafa qilmaslik, o'yinchoqlarni tortib olmaslik, balki ularni xushmuomilalik bilan so'rash, mebel-jihoz, risolalarni ehtiyot qilish, ularni ehtiyotlash kerakligini o'zlashtirib olishlari kerak. Bolalarda hayvonlar, qushlarni sevish, o'simliklarni ehtiyot qilish lozimligi haqidagi tasavvurlar shakllanadi shakllanadi. Kichkintoylar kattalarning bolalar bog'chasida hamma narsa ular uchun yaxshi bo'lishi haqida g'amxo'rlik qilayotganliklarini (oshpaz ovqat tayyorlashi, enaga uyni

yig'ishtirishi va hokazo), kattalarning mehnatiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish zarurligini tushuna boshlaydi.

Ikkinchi kichik guruh bolalarda bu tasavvurlar faqat mustahkamlanib qolmay, yangi tasavvurlar ham shakllanadi. Masalan, bolalar kattalar mehnati singani uchun mebel-jihoz, kiyim, poyabzalni ehtiyot qilish zarurligini o'zlashtiradi. Bolalar barcha kishilarning mehnat qilishlarini: uylar qurishlarini, mashinalar yasashlarini, non, sabzavot va hokozolarni yetishtirishlarini, bir-birlariga yordam berishlarini bilib oladilar. Bolalar kichkintoylar haqida g'amxo'rlik qilish, kattalar va tengdoshlarga ko'maklashish yaxshiligini tushunadilar.

Bolalarda to'g'rilik: to'g'ri gapirish kerakligini, qavm – qarindoshlar, yaqinlar, tarbiyachiga hamma narsani so'zlab berish zarurligi haqidagi tasavvurlar shakllanadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy turmush hodisalari va insoniy munosabat me'yorlari haqida oddiy tasavvurlar hosil bo'la boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning yuqorida aytib o'tilgan vazifalari hal etilishiga ko'pincha o'zboshimchalik, salbiy holat, qaysarlikning namoyon bo'lishi xalaqit beradi.

Uch yoshga borganda bolada namoyon etish ehtiyoji paydo bo'lib, o'zining "Meni"ni anglab yetish ro'y beradi. Bolaning o'ziga munosabati uning nima qila olishi va o'z muvaffaqiyatlarini qanday idrok etishiga bog'liq bo'ladi. Agar kattalar bolada keskin o'zgarish ro'y berganligini, uni avvalgi munosabat qanoatlantirmayotganini sezmay qolsalar inqiroz ro'y beradi. Bola, tarbiyachilar, ota-onalar berishga moyil bo'lganidan ko'proq darajada mustaqillikni talab eta boshlaydi. Ularning taqiqlashlar e'tiroz o'yg'ota boshlaydi. Unda qaysarlik paydo bo'ladi. Ayrim bolalardagi qaysarlik esa maxsus pedagogik chora ko'rishni talab etadi.

Pedagoglar uch yoshga to'layotgan bolaning hayotiga o'zini qaror toptirish, mustaqillikka intilish kabi ehtiyojlarini hisobga oladilar va qaysarlik vujudga kelishining oldini olish yuzasidan ish olib boradilar, agar bunday holat ayrim kichkintoylarda namoyon bo'lsa, kuch-g'ayratlarini ularni bartaraf etishga qaratadilar. Shu tariqa guruhdagi ayrim bolalarda kuzatiladigan qaysarlikni bartaraf etish ham bu yosh bosqichida bolalarni tarbiyalash vazifalaridan biri bo'lish mumkin.

Ezgu tuyg'ular, ijobiy o'zaro munosabatlar, oddiy axloqiy fazilatlar turmushdagi kundalik faoliyatda, o'yinda, mashg'ulotlar chog'ida tarbiyalanadi va bu faoliyatlarni shakllantirish bilan bog'liqdir.

Men bitiruv malakiy ishini yozishda mavzuga oid ilg'or tajribalarni kuzatdim hamda o'zimning pedagog amaliyotimda tajriba sinov ishlarini olib bordim. Natijada Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsidagi axloqiy sifatlarni shakllanishida ular bilan olib boriladigan o'quv mashg'ulotlari, tarbiyaviy tadbirlar, jismoniy mashqlar, xarakatli o'yinlar xuddi shuningdek tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari bilan hamkorlikda olib boriladigan ma'naviy, axloqiy tadbirlar bolalarning madaniy ehtiyojlarini, madaniyatga oid bilim, ko'nikma va malakalarni egalallashlarida aloxida ahamiyatga ega ekanligini guvohi bo'ldim. Bu ishlarni tashkil etishda maktabgacha ta'lim muassasalaridagi faoliyat ko'rsatayotgan pedagog, psixolog, logoped, deffektolog kabi mutaxassislar bilan ham suxbat xam fikr bo'lib birgalikda ma'naviy tadbirlarning ish rejalarini tuzish orqali ularni axloqiy madaniyatini shakllantirishda ijobiy samara berishligini o'z tajribamda guvoxi bo'ldim. SHuning uchun bitiruv ishni bajarishda, yozib tugatishda shunga erishdimki o'zimning faoliyatimga nisbatan ijodiy, tanqidiy hamda pedagogik, psixologik jihatdan yondashish zarurligini anglab yetdim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuchdir” T. 2008 y.
2. I.A.Karimov. “Yangicha fikrlash va ishlar davr talabi”, 5 jild T. “O‘zbekiston” nashriyoti 1999 y.
3. Karimov.I.A Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: “Sharq”, 1997.
4. Islom Karimov. Ma’naviy yuksalish yo‘lida, - T., “O‘zbekiston” nashriyoti, 1998.
5. Islom Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi, 5-jild, T., “O‘zbekiston” nashriyoti, 1997.
6. Islom Karimov. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qo‘rmoqdamiz. 7-jild, T., “O‘zbekiston” nashriyoti, 1999.
7. Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, bar-qarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T., “O‘zbekiston” nashriyoti, 1997.
8. Islom Karimov. Ma’naviy yuksalish yo‘lida, - T., “O‘zbekiston” nashriyoti, 1998.
9. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug‘at). - T., “YAngi asr avlodi”, 2002.
10. Barkamol avlod orzusi. - T., “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1999 y
11. “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T. 1997 y
12. “Uchinchi ming yillikning bolasi” davlat dasturi. 2004 y.
13. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2003, 38-b.

14. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – T.: 1997.
15. O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: 1997.
16. Abdullayeva Sh. va boshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan", 2004
17. Abu Abdulloh Muhammad ibn al – Buxoriy. Xadis 1-jild Tarjimon Z.Ismoilov. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997
18. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akadimiya, 2000
19. Axloq-odobga oid hadis namunalari. T.A.Yo'ldoshev tahririda.T.: "Fan", 1990
20. Axmedov B. Ajdodlar o'giti. Hikmatlar. Hikoyalar. Tamoyillar. – T.: "Cho'lpon", 1991
21. Ibragimov X.I., Abdullayeva SH.A. pedagogika o'quv qo'llanma T.: "Fan", 2004
22. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari T.: 1994 y.
23. Mahmudov M. Komil inson shaxsi va ijtimoiy tajriba."Pedagogik mahorat", 2002 y 4-son.
24. Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. – T.: "O'qituvchi", 1994
25. Pedagogika. A.Munavvarov tahriri ostida. – T.: 1996
26. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. –T.: "O'qituvchi", 1997
27. Roziqov O va boshqalar. Didaktika. T.: "Fan", 1997
28. Saidaxmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi yoxud zamonaviy mazmuni haqida: Amaliyot va nazariyasi. Ma'rifat. 2004 21-fevral.

29. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: “Moliya”, 2003 y
30. Usoma ibn Munsiz. Ibratli kitob. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyt va san'at nashriyoti. 1980 y.
31. Yusupov E. Ma'naviyat asoslari. – T.: 1998 y.
32. Quronov M.S., Qurbonniyozova Z.S. Ijtimoiy pedagogika.- T.: RTM, 2003 y.
33. G'aybulloh as-Salom. Ezugulikka chog'lan, Odamzod. – T.: “Sharq”, 1999 y.
34. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: “O'qituvchi”, 1994-146 b
35. Xasanboyev J.Y. Uzluksiz ta'lim tizimida taxsil oluvchilarning o'quv imkoniyatlarini aniqlash. – T.: Fan, 2005 y.
36. R.Inog'omov, K.Toshmurodova. Pedagogika fani XXI-asrda. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2000 y.
37. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar T., 2000 y.
38. U.Maxkamov. “Axloq odob saboqlari”. T 1994 y.
39. M.Maxmudov. “Komil inson shaxsi va ijtimoiy tajriba”. “Pedagogik mahorat” jurnali. 2002 y. 4-son. Buxoro.
40. T.A.Yuldoshev taxririda “Axloq odobga oid xodis namunalari”. T. “Fan”1990 y.
41. I.Yusupov. “Ma'naviyat asoslari” T. “Fan”1998 y.
42. X.Ibragimov, U.Yuldoshev, X.Bobomirzayev “Pedagogik psixologiya” T. 2007 y.

